

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Qo'l yozma huquqida

UDK

**RAXMONOVA NIGORA**

**EKOLOGIK DEGRADATSIYANI KELITIRIB CHIQARUVCHI  
KIMYOVIY OMILLAR VA UNI BARTARAF QILISH MASALALARI**

**5A 110301 – KIMYO O'QITISH METODIKASI**

**MAGISTR**

**Akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: dots. G.D.Shamsidinova**

**Navoiy -2013**

## **MUNDARIJA**

**KIRISH.....**

### **I. ASOSIY QISM**

#### **I.BOB.EKOLOGIK DEGRADATSIYA JARAYONLARI TAVSIFNOMASI.**

I.1. DEGRADATSIYA TUSHUNCHASINING PAYDO BO'LISHI VA QO'LLANILISHI

I.2. TABIAT BILAN JAMIYAT O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR TAHLILI.....

I.3.EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI.....

#### **II.BOB.GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR,XAVF HAMDA TAHDIDLAR**

II.1.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR VA  
ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI

II.2.NAVOIY VILOYATI HUDUDIDAGI EKOLOGIK DEGRADATSIYA  
JARAYONLARI.....

II.3.EKOLOGIK DEGRADATSIYA JARAYONLARINING INSON SALOMATLIGIGA VA  
ATROF MUHITGA TA'SIRI.....

II.4. MINTAQADA EKOLOGIK DEGRADATSIYANI OLDINI OLISH VA UNING  
MANBALARINI BARTARAF ETISH.....

#### **III.BOB.EKOLOGIK DEGRADATSIYANI KELTIRIB CHIQRUVCHI KIMYOVIIY OMILLAR.**

III.1.QISHLOQ XOJALIGINI KIMYOLASHTIRISH JARAYONLARI.....

III.2.MINERAL O'G'ITLARNING QO'LLANILISHI.....

#### **IV.BOB.EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI**

IV.1.EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA OMILLARI

IV.2.EKOLOGIK MADANIYAT – ONG - MAVKURA TUSHUNCHALARI .

**XULOSA.....**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....**

“Ekologik vaziyat va barqarorlikning buzilishi, atrof-muhitning ifloslanishi, ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar hududiy doiradan, milliy va mintaqaviy chegaradan chiqib, butun insoniyatning umumbashariy muammosiga aylanganligi, bugungi kunda hech kimga sir emas. Tabiat va inson o'rtasidagi muvozanatning buzilishi o'nlab bo'lmas ekologik falokatlarga olib keladi. Binobarin, mana shu muqaddas zamin, aziz Vatan barchamizniki, uning kelajagi uchun qaygurish har birimiz uchun ham qarz, ham farzdir”. **I.A.Karimov**

## **K I R I S H**

**Mavzuning dolzarbligi:** Ekologik degradatsiyani keltirib chiqaruvchi kimyoviy omillar va ularni bartaraf qilish masalalari, bugungi globallashuv jarayonidagi hal qilinishi lozim bo'lgan eng muhim masalalar qatoridan joy olgan. Shuning uchun ham tabiatni muhofaza qilish, atrof muhit ozodaligini saqlash, butun tiriklik istiqomat qilayotgan ona zaminga turli chiqindilarning tushishiga yo'l qo'ymaslik, butun jahon mamlakatlari qatori, Mustaqil O'zbekistonda ham davlat ahamiyatiga ega muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish, ekologik xavf-xatarni oldini olish, bartaraf etish va ta'sirini kamaytirish borasida saylov qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar muhim bosqich bo'ldi. Qonunchilik palatasidagi deputatlik o'rinlarining soni 120 tadan 150 taga ko'paytirildi, shundan 135 nafar deputat siyosiy partiyalardan saylanadi. Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari nihoyatda muhim va dolzarb ahamiyat kasb etib borayotganidan kelib

chiqqan holda, qonunchilik palatasidagi 15 ta deputatlik o'zni O'zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlarga berildi.

Respublikada yer,suv,o'simliklar va hayvonot olamidan foydalanish va uni muhofaza qilishda Davlat nazorati o'rnatilgan bo'lib, mazkur ob'ektlarini saqlash, ularning holatini yaxshilash, bulg'anishi va nobud bo'lishini oldini olish va kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf etish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishni ta'minlashda buzg'unchi hatti harakatlarga yo'l qo'ymaslik holatlarini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlar **“Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonunning** 1-moddasida belgilab berilgan bo'lib, yer, suv, o'rmon,yer osti boyliklari,atmosfera havosi, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish to'g'risidagi qonunlar bilan tartibga solinadi.Yuqoridagilarni inobatga olib,hayotiy jarayonlarda tabiatni muhofaza qilish, ekologik degradatsiyalarga qarshi kurashish goyat katta ahamiyat kasb etishini Magistrlik dissertatsiyasi ishini bajarish asnosida ko'rsatib bermoqchi bo'ldim.

**Dissertatsiyaning maqsadi:** Mazkur mavzuni tanlashimdan asosiy maqsad Respublikani samarali va barqaror ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish manfaatlari yo'lida tabiatdan oqilona foydalanish va uni izdan chiqarmaslikni qulay shart-sharoitlarini yaratish, butun tiriklik hamda inson salomatligi uchun ekologik muvozanatni saqlash, jonli organizmlarning turlari va genetik fondini toza saqlab qolish, butun dunyoda ekologik xavfsizlikni ta'minlash orqali, jamiyatning barqaror taraqqiyotiga ozgina bo'lsa ham o'z hissamni qo'shishdir. Tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun, insonning yashash muhiti bo'lgan biosfera va ekologik tizimlar barqarorligini saqlab qolish,ekologik jihatdan

xavfsizlik hamda kelgusi avlodlarning genetik fondi haqida g'amxo'rlik qilish, Respublikaning barcha ta'lim muassasalarida ekologiya fanlaridan dars mashg'ulotlari o'qitilishini tashkil qilishdan iboratdir.

**Dissertatsiyaning vazifalari:** Magistrlik dissertatsiyasini bajarish jarayonida quyidagi vazifalarni bajarishni:

-Ekologik degradatsiyani o'rganish va uni o'qitish bo'yicha bugungi kunda ta'lim sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan xulosa va takliflar berish;

- ekologik degradatsiyaning mohiyati va kelib chiqish sabablarini o'rganish;

- ekologik degradatsiyaning inson salomatligiga ta'siri va oqibatlarini o'rganish;

-ekologik degradatsiyani keltirib chiqaruvchi kimyoviy omillarni bartaraf etish;

-yosh avlodning ekologik ma'daniyatini oshirish zaruratini izohlash ;

-Respublika bo'yicha ekologik holatni tahlil qilish masalalarini o'rgandim hamda dissertatsiya ishida quyidagi masalalarni yoritishga harakat qildim.

**Kirish qismida:** Mavzuning dolzarbligi, dissertatsiyaning maqsad va vazifalari, mavzuning amaliy ahamiyati, ilmiy yangiligi, tadqiqot obyektlari, predmeti va hokozo jarayonlarni o'rganish;

**Asosiy qism1 bob,**Ekologik degradatsiya jarayonlari tavsifnomasi deb atalib, unda degradatsiya tushunchasining paydo bo'lishi va qo'llanilishi, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlar tahlili, ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari;

**Asosiy qism 2 bob,** Global ekologik muammolar,xavf hamda tahdidlar deb atalib,unda O'zbekiston respublikasidagi global ekologik muammolar va ularni bartaraf etish masalalari, Navoiy viloyati hududidagi ekologik degradatsiya jarayonlari, ekologik degradatsiya jarayonlarining inson salomatligiga va atrof

muhitga ta'siri, mintaqada ekologik degradatsiyani oldini olish va uning manbalarini bartaraf etish;

**Asosiy qism 3 bob,** Ekologik degradatsiyani keltirib chiqaruvchi kimyoviy omillar deyilib, unda qishloq xojaligini kimyolashtirish jarayonlari va mineral o'g'itlarning qo'llanilishi;

**Asosiy qism 4 bob,** Ekologik madaniyatni shakllantirish masalalari deb atalib, unda ekologik ta'lim va tarbiya omillari, ekologik madaniyat – ong - mavkura tushunchalarini tahlil qilish;

**Xulosa qismida:** Ekologik degradatsiyani keltirib chiqaruvchi kimyoviy omillar va uni bartaraf qilish masalalarini o'rganish yuzasidan xulosalar, ishlab chiqarish va amaliyotga takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini keltirishdan iborat edi.

**Mavzuning amaliy ahamiyati.** Atrof muhit bilan bog'liq bo'lgan muammolar hozirgi paytda muayyan bir hudud , faqat bir mamlakat yoki bir mintaq bilan cheklanib qolgan emas. Atrof muhitning zararlanishi hech chegara bilmaydi, millat tanlamaydi hamda butun insoniyatga o'zining zararli ta'sirini ko'rsatmoqda. Ana shu zararli ta'sirlarni oldini olish maqsadida, Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof muhit masalalari bo'yicha dasturi bo'lgan YUNEP tashkilotini tuzildi. Mazkur tashkilotni tuzishdan ko'zlangan maqsad, mamlakatlar va xalqlar turmush darajalarini kelgusi avlod uchun zarar yetkazmaydigan tarzda yaxshilashni nazarda tutuvchi imkoniyatlar yaratish yo'li bilan, atrof muhitga ehtiyotkorlik bilan muomila qilish bo'yicha rahbarlikni ta'minlash va sherikchilikni rag'batlantirishdan iboratdir.

Foydalanish uchun yaroqli bo'lgan yer, suv va havo manbalari, yer usti, yer osti suvlari hamda boyliklari, mamlakatni iqtisodiy va ekologik jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida ishlatiladi.

Ko'pgina mamlakatlarda yer,suv resurslari qishloq xo'jaligi, sanoat, kommunal xo'jaligi va boshqa maqsadlarda foydalanishning ortishi hamda turli omillar ta'sirida, birinchi navbatda ishlatiladigan iflos suvlarni tozalamay daryo va ko'llarga oqizilishida suv manbalarining ifloslanishi natijasida 20 – asr oxiriga kelib insoniyat oldida suv taqchilligi muammosi paydo bo'ldi. BMT tomonidan kelajakda insoniyatni chucuk suv bilan ta'minlash muammolariga bag'ishlangan suv resurslari bo'yicha 3- jahon forumi o'tkazildi (2003, Yaponiya, Kioto), 2003 yil Xalqoro chucuk suv yili deb elon qilindi.

**Mavzuning ilmiy yangiligi:** Magistrlik dissertasiyasi ishi sifatida mazkur mavzuni o'rganishim davomida quyidagi fikr mulohazalarni ilmiy yangilik sifatida kiritishni lozim deb topdim.

Atrof muhitni muhofaza qilishda YUNEP bosh organ hisoblanib,global ekologik dasturlarni ishlab chiqadi, BMT tizimida tabiatni asrash jabhasining barqaror rivojlanishi uchun izchil harakat qiladi va butun yer kurrasida tabiatni asrash uchun astoydil ko'maklashadi.

YUNEPning bosh vazifalari insonlar istiqomat qiladigan global muhitning holatini o'rganish,atrof muhitdagi o'zgarishlarni baholab,qulay vaqtda ogohlantirish,atrof muhit uchun xavf xatar to'g'ilganda yo'l-yuriqlarni ishlab chiqish, konvensiyalarni o'zara muvofiqlashtirish,ekologik muammolar paydo bo'lganda zudlik bilan kelishilgan xalqaro me'yor va talablarni amalga oshirishga ko'maklashish,tabiatni muhofaza qilish faoliyatini BMT doirasida koordinatsiya qilish, global ekologik jamg'arma mablag'larni taqsimlash bo'yicha muassasalarni o'z majburiyatlarini bajarishga undash,ekologik ta'limni rag'batlantirish va bunga jamiyatning barcha qatlamlarini jalb qilish,fan olami va siyosiy qarorlar qabul qilish uchun ma'sul shaxslar bilan amaliy aloqalar o'rnatish,bu boradagi siyosatni ishlab chiqishga yordam berish va muhim masalalar bo'yicha tegishli institutlar

tashkil etish xususida hukumatlar hamda tashkilotlar bilan maslahatlashishdan iboratdir. YUNEPning 1996-1997 yillarga mo'ljallangan ish dasturlarida tabiiy resurslardan foydalanish va uni oqilona boshqarishni tashkil etish, ekologik xavfsizlik, ishlab chiqarish, insonlar salomatligi va farovonligini barqaror ushlash maqsadida atrof muhitni yaxshilash, iqtisodni globalashtirish va atrof muhit muhofazasi masalalari joy olgan. Mazkur ishlarni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'lar miqdori 90-150 mln dollarni tashkil etadi. YUNEPning boshqaruv organi 58 ta mamlakat vakillaridan iborat bo'lib, boshqaruvchilar har yili to'planib turadilar.

**Tadqiqot obyekti :** Magistrlik dissertatsiyasi uchun tadqiqot ob'yekti sifatida, Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof muhit masalalari bo'yicha dasturi bo'lgan YUNEP tashkilotining amaliy faoliyati asos qilib olindi, Respublika va viloyatdagi mintaqaviy ekologik holatlar tahlil qilindi, ulardagi o'simliklar va hayvonot olami vakillarining tashqi muhit sharoitiga, abiotik, biotik va antropogen omillar ta'sirida o'zgarishlari ko'rib chiqildi. Bundan tashqari viloyat hududining ekologik holati o'rganildi.

BMT ish boshlagan dastlabki davrda taraqqiyot maqsadlari uchun yaroqli jahon tabiiy resurslari ro'yxatini yaratishga e'tiborni qaratdi, 70 yillardan boshlab, BARQAROR TARAQQIYOT deb atalgan yangi konsepsiyaning bosh tarafdori bo'lgan yetakchi muassasaga aylandi. Iqtisodiy taraqqiyot bilan atrof muhitning tanazzuli o'rtasidagi aloqa ilk bor 1972 yilda bo'lib o'tgan Xalqaro Stokgolm konferensiyasiga qo'yildi va mazkur jarayonda "Insonni o'rab turgan atrof muhit o'rtasidagi munosabatlar" tahlil qilindi. Konferensiyadan so'ng global ekologik muammolarni yechish maqsadida BMTning "Atrof muhit bo'yicha dasturi-YUNEP" ga asos solindi.

YUNEP tashkilotining bajaradigan vazifalari quyidagilardan iborat.



- Butun dunyo miqyosida atrof muhitning holatini belgilaydi;
- Xalqaro hamkorlikni talab etuvchi muammolarni aniqlaydi;
- Xalqaro ekologik qonunchilikni ishlab chiqishga ko'maklashadi;
- Ijtimoiy- iqtisodiy siyosat va BMT dasturlari asosida ekologik echimlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi:** Dissertatsiya ishi Kirish, Asosiy qism, 4 ta bob, Xulosa, Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib,     ta varaqda o'z aksini topgan. Mavzuga oid jadvallar va rasmlar ishda o'z aksini topgan.

Magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida xalqaro shartnomalar, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, ma'ruzalari, qarorlari, farmon va farmoyishlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari, farmoyishlari hamda boshqa vakolatli organlar bilan kelishilgan va qabul qilingan qarorlari, yetakchi ekolog olimlar, "Ekoharakat" vakillari va tajribali mutaxasislarning fikr-mulohazalari, mavzuga aloqador ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, ommaviy axborot vositalari va internet ma'lumotlaridan foydalanildi.

## **I. ASOSIY QISM**

### **I.BOB . EKOLOGIK DEGRADATSIYA JARAYONLARI TAVSIFNOMASI.**

#### **1.1. DEGRADATSIYA TUSHUNCHASINING PAYDO BO'LISHI VA QO'LLANILISHI**

**Degradatsiya** so'zi lotinchadan olingan bo'lib, "degradatio"-pasayish, susayish, "regressiya"-yomonlashish jarayoni so'zlaridan olingan bo'lib, biror bir ob'ektning ma'lum bir muddat davomida orqaga ketishi, sekinlik bilan yomonlashuvi, sifatining pasayishi, vayron bo'lish degan ma'nolarni anglatadi.

Polyak tilida degradatsiya so'zi, amaldorni unvonini pasaytirish, amalidan mahrum qilish degan ma'noda, keyinchalik XX asrga kelib, turli Yevropa mamlakatlarining tillarida "tushish", "pasayish" ma'nosida ishlatilgan.

Degradatsiya tushunchasi keng ma'noli bo'lib, o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- Biodegradatsiya-organik moddalarning mikroorganizmlar ishtirokida parchalanishi;
- Kimyoviy degradatsiya-murakkab molekulalarning sodda molekulalarga aylanish jarayoni;
- Telekommunikatsiyalar degradatsiyasi - aloqaning yo'qolishi;
- Atrof-muhit yoki ekologik degradatsiya - ekotizimning bo'zilib;
- Shaxsiy, umumiy, madaniy degradatsiya va hokozolar.

XIX asr oxiri — XX asrning dastlabki yillaridan boshlangan ilmiy-texnikaning yuksak darajadagi taraqqiyoti, insoniyat hayotini butunlay o'zgartirib yubordi. Xalq xo'jaligining mexanizatsiyalashuvi, kimyolashuvi, avtomatlashuvi

va keyingi yillarda elektronikaning keng miqyosda ishlatilishi, insonning mehnat qilish sharoiti va muhitining butunlay o'zgarishiga, ish samaradorligining keskin oshishiga sabab bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, aholi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan jadal yaxshilanishiga turtki bo'ldi. Ma'lumki, ijtimoiy-iqtisodiy omillar inson salomatligining yaxshilanishida muhim o'rin tutadi. Ilmiy-texnika taraqqiyotining imkoniyatlari, inson tomonidan tabiatni o'z izmiga buysuntirib, uning resurslaridan tobora ko'proq foydalana boshlashiga zamin yaratdi. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ijobiy o'zgarishlar uning yashash tarzining yaxshilanishi, o'rtacha umr ko'rishining uzayishiga va yer yuzi aholisi sonining keskin ko'payishiga olib keladi. Shu bilan birgalikda, tabiiy jarayonlarga aralashish, tabiat qonunlarini e'tiborga olmaslik insoniyat uchun bir qator muammolar keltirib chiqardiki, ulardan biri ekologik tizimning o'zgarishidir.

Ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning ekologik tizimga ta'sir o'tkazishi suv, tuproq, atmosfera havosi, o'simliklar, hayvonot dunyosi o'rtasidagi o'zaro munosabat va aloqadorlikning bo'zilishiga sabab bo'lmoqda. Bugun ekologik fojining dastlabki ko'rinishlari mavjudki, u tabiatning «degradatsiyasi» deb atalmoqda.

Degradatsiya - ekologik tizim zanjirlari sifatining yomon tomonga o'zgarishidir. Ekologik tizim zanjiri esa o'zaro bir-biriga bog'liq juda ko'p xalqalardan iborat bo'lib, bunday zanjirlarning biriga zarar yetishi boshqalarining ham zararlanishiga olib keladi.

Hozirgi kunda sayyoramizda inson faoliyatining salbiy ta'siri natijasida atrof muhitda sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Jumladan, iqlim o'zgarishlari, turli xildagi tabiiy ofatlar, yer sayyorasining barcha kengliklarida sezilmoqda. Oqibatda o'rmon bilan qoplangan maydonlar qisqarmoqda, atmosfera, suv va litosfera ifloslanmoqda. Tabiiy muhit holatining inson ta'sirida o'zgarishi, jonli va jonsiz

komponentlarga kuchli antropogen ta'sir mahalliy, mintaqaviy va umumjahon ekologik muammolarni keltirib chiqaradi.

Bunday zanjirlaridan biri atrof-muhitning global ifloslanishidir. Insoniyat ming yillar davomida o'z ehtiyojlarini tabiiy resurslar hisobiga qondirib keldi va hosil bo'lgan chiqindilar asosan organik xarakterga ega bo'ldi, ular esa tabiatning o'zini o'zi tozalash qonuniyatlariga buysungani uchun chiqindi sifatida insoniyatga noqulaylik, salomatligi uchun katta xavf tug'dirmadi.

So'nggi yillarda ilm-fan, texnika yutuqlaridan samarali foydalanish, insoniyat o'zining o'sib borayotgan ehtiyojlarini notabiiy-sun'iy omillar hisobiga tobora to'laroq qondira borishi tabiiy jarayonlarning ham o'zgarishiga olib keldi. Jumladan, hosil bo'layotgan chiqindilar sun'iy mahsulot bo'lgani tufayli inson yashaydigan muhitga jiddiy zarar yetkazmoqda.

Tashqi muhit ifloslanishining kuchayishi, birinchi o'rinda, mamlakatlarning sanoatlashishi bilan bog'liqdir. Bugungi kunda tashqi muhitga chiqarilayotgan tabiiy va texnogen chiqindilarning miqdori milliardlab tonnani tashkil qilmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, hozirgi kunda Yer yuzida 4 milliondan ko'proq kimyoviy birikmalar qayd qilinmoqdaki, ular inson faoliyatining natijasidir. Masalan, keyingi yuz yilda atmosferaga 2 million tonna Si, 2,5 million tonna As, 1,5 million tonnadan ko'proq Ni, bir necha yuz million tonna N va S birikmalari chiqarilgan.

Hozirgi vaqtda to'plangan juda ko'p ilmiy ma'lumotlar shundan darak bermoqdaki, ekologik tizim degradatsiyasining kuchayib borishi ko'plab noqulay vaziyatlarni keltirib chiqarmoqda. Ularga, birinchi navbatda, inson sog'lig'iga yetkaziladigan ziyon va shu bilan bog'liq iqtisodiy, ma'naviy yo'qotishlarni kiritsa bo'ladi. Ma'lumki, inson sog'ligi u yashab turgan muhitda shakllanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, inson salomatligi u yashaydigan hududning ekologik holati

bilan tobora bog'liq bo'lib bormoqda. Shu bois ham aholi sog'lomlik holatini u bilan bog'lab o'rganishni o'ta muhim zamonaviy ijtimoiy muammo sifatida baholash mumkin.

Jahon jamoatchiligi bugun yuzaga kelayotgan ekologik vaziyatga juda xavotirlik bilan qarayotgani bejiz emas. Zero, so'nggi yillarda xalqaro tashkilotlar, ekspertlar, ekolog-olimlar bu muammoga jiddiy yondashuv zarurligini bot-bot qayd etmoqdalar. Rivojlangan mamlakatlarda xalq xo'jaligiga joriy etilayotgan texnologiyalarga ekologik xavfsizlik nuqtai nazardan talablar qo'yilmoqda, bu borada muayyan standartlar ishlab chiqilmoqda. Bu standartlarni yaratilayotgan har qanday yangi texnologik jarayonlarga tadbiiq qilish bo'yicha talablar, insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida butunlay chiqindisiz, zararsiz texnologiyalar yaratishning imkoni bo'lmayotgani tufayli to'la bajarilayotgani yo'q.<sup>1</sup>

Tashqi muhit ifloslanishining inson organizmiga ta'siri muhitda uchraydigan moddalarning konsentratsiyasiga bog'liq. Aksariyat hollarda yuqori darajada sanoatlashgan hududlarni hisobga olmaganda, kimyoviy birikmalarning tashqi muhitdagi miqdori muayyan bir kasallikni vujudga keltira olmaydi, lekin aholining umumiy kasallanishi deb ataladigan patologik holatlarning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Aholining iqtisodiy ahvoli yaxshilanishi bilan bog'liq shakllanayotgan ijtimoiy muammolar, oziq-ovqat tarkibining o'zgarishi, harakat faolligining pasayishi (gipodinamiya) va ekologik vaziyatning yomonlashuvi aholi o'rtasida uchrayotgan kasalliklar tarkibining ham o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Tabiat bilan iqtisodiyot orasida o'zaro bog'liqlik kishilik jamiyatining ilk bosqichlaridan ma'lum. Chunki, tabiat insonni oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy

---

<sup>1</sup> O'ktam Obloqulov,  
Ekoharakat faoli

va boshqa zaruriy moddiy ne'matlar bilan ta'minlaydi. Inson tabiatdan estetik zavq oladi, unda va uning ta'sirida sog'lig'ini tiklaydi. Xullas, hayot uchun barcha zaruriy moddiy ne'matlarni bevosita va bilvosita yo'llar bilan oladi, bahramand bo'ladi. Moddiy ne'matlardan foydalanish jarayonida odamlar avvaliga istaganicha va undan ortiq miqdorda foydalangan bo'lib, albatta isrofchilikka yo'l qo'ygan. Lekin vaqt o'tishi va ishlab chiqarish qurollarining takomillashuvi, eng muhimi odamlarning fikrlash qobiliyati, ongining o'sishi bilan noz-ne'matlardan foydalanishda ehtiyotkorlik belgilari ham shakllanib borgan. Bu hodisa ularni ov ishlari baroridan kelmagan vaqtlarda yaxshi sezilib turgan bo'lishi mumkin. Demak, xo'jalik yuritishni odamlar juda qadimdan egallay boshlashgan.

Aholining moddiy iste'mol ehtiyoji dunyo miqyosida qaralsa cheksiz va qondirib bo'lmaydigan darajada kattadir. Lekin tabiiy resurslar, ya'ni ehtiyojni qondiradigan vositalar chegaralanganligi sababli, talab, ehtiyoj va moddiy ne'matlar o'rtasida juda katta farq mavjuddir. Bu bir tomondan, makroiqtisodiyot bilan makroekologiyani birlashtiradi, ya'ni xo'jalikni nihoyatda bilib va oqilona tashkil qilish zarurligiga undaydi, ikkinchi tomondan, birlamchi tabiiy resurslarning o'rnini bosa oladigan yoki almashtira oladigan, sun'iy materiallarni izlash va amalda qo'llash ishtiyoqi kuchayib boradi. Bu bilan tabiiy resurslarni-tejash, ikkilamchi boyliklardan keng miqyosda foydalanish, eng muhimi tabiiy resurslarning o'rnini bosa oladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish va amalda qo'llash g'oyasini hayotga tobora tezroq tadbiq qilish jadallashib boradi. Bu muammoning qo'yilishi, yechimi jarayonida va amalda tadbiq, qilinishida iqtisodiyotning ahamiyati beqiyosdir.

Iqtisodiyot taraqqiyoti ko'p hollarda tabiiy resurslarga bog'liq. Turli resurslarning mavjudligi xalq ho'jaligi tarmoqlarini muttasil rivojlantirib borishga imkon berib, bu borada ekologik tabiiy resurslarning ham o'z o'rnini bor. Qishloq

xo'jaligi, xususan sug'orma dehqonchilik mahsulotlari, lalmi dehqonchilik va yaylov chorvachiligi yetkazib beradigan oziq-ovqat, texnik xom ashyolar va boshqalar xalq xo'jaligining o'sishida ta'siri yetarli darajada yuqori bo'ladi. Dunyo bo'yicha yalpi ichki mahsulotning jami 32 % ini ekologik soha resurslari yetkazib berishi ma'lum. Bizningcha, ekologik soha resurslarining iqtisodiyotni taraqqiy etishidagi roli istiqbolda yana ortib borishi kutiladi. Chunki, aholi sonining ortib borishi chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini miqdor jihatdan ko'paytirishga ta'sir etadi (don, chorvachilik mahsulotlarini jon boshiga me'yoriy ko'rsatkichlarda yetkazib berilishini taqozo etadi) .

Iqtisodiyotning tabiiy resurslar bilan ta'minlanganligi ko'p vaqt mobaynida tabiat qonunlari, xususan ekologik qonuniyatlar va qonunlarga bog'liqligi tan olinmadi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi va fan yutuqlarini sanoat hamda qishloq xo'jaligi sohalarida keng qo'llanilishi natijasida tabiat boyliklarining joylashuvi, ularning potensial imkoniyatlari, qayta tiklash qobiliyatlari, o'z-o'zini tozalash darajalari yagona tabiat, shu jumladan, ekologik qonunlarga bog'liqligi keyinchalik mutaxassislar tomonidan asoslana boshlandi. Iqtisodiyotdagi «eng kam xarajat sarflab yuqori daromadga erishish tamoyiliga asoslangan barakasiz (ekstinsiv) rivojlanish, pirovard natijada ekologik inqirozga duch keldi. Uning salbiy oqibatlari havo va suvning ifloslanishi, tuproqlarning qashshoqlanishi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifatida, daromadlarning pasayishida, kishilar salomatligining yomonlashuvi, mehnat unumdorligining pasayishi, hosildorlikning kamayishi orqali iqtisodiyotda tanglikni sodir eta boshladi. Aniqlanishicha, tuproq unumdorligining bir foizga kamayishi natijasida hosildorlikning o'rnini to'ldirish uchun 10% sarf-xarajat qilish zarur ekan. Ma'lum bo'lishicha, tabiiy o'rmonni qirqish tufayli o'rnida vujudga kelgan ikkilamchi o'rmonning mahsuldorligi birlamchi o'rmonga mos kelmaydi, mutaxassislarga bu oldindan ma'lum bo'lgan. Atlantika okeanida baliqlarning xo'jasizlarcha tutilishi tufayli bir necha baliq

zotlari yo'qoldi, natijada baliq tutish rejalari bajarilmay qoldi, sifatsiz baliq, mahsulotlari bozorda o'tmay qoldi. Buning uchun baliq, turlari zotlarining populyatsiyasi ekologiyasi o'rganilishi zarur bo'ldi. Yevropa va Amerikadagi bir necha mamlakatlar hamda baliqchilik bilan shug'ullanadigan kompaniyalar bunday tadqiqotlar uchun katta mablag' ajratdilar. Korroziya natijasida metallarning beshdan bir qismi va neft jihozlarining 77%i yo'qotilishi biokorroziya bilan bog'liq, ekan, ular mikroblar faoliyati bilan, tushuntiriladi.

Mutaxassislarning hisob-kitob qilishicha XX asrning ikkinchi yarmida insonning xo'jalik faoliyati ta'sirida tabiiy muhitga yetkazilgan zarar va u orqali aholi salomatligiga yetkazilgan putur jahonning yillik byudjetidan ziyod miqdorni tashkil etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yer qa'ridan olingan tayyor mahsulotning bir birligiga bir necha, ba'zan 10 va undan ko'p birlikda chiqindilar vujudga keladi. Tarkib topgan chiqindilar odatda iqtisodiyotda bahoga ega emas. Chunki, ulardan xo'jalikda foydalanilmaydi, boz ustiga chiqindilar atrof-muhitni ifloslaydi, yaylovlar maydonini egallab turadi, inson hayotini xavf ostida qoldiradi. Qanchalik ko'p yalpi milliy mahsulot ishlab chiqilsa, shunchalik chiqindilarning umumiy hajmi ko'p bo'lishi ma'lum. Lekin, davlat ushbu chiqindilarning atrof muhitni ifloslashi tufayli aholi salomatligi yomonlashuvining oldini olish va ularning sog'ligini tiklash maqsadida qayg'uradi va buning uchun ma'lum mablag' ajratadi. Bu sarf-xarajatlar yalpi milliy mahsulot hisobidan amalga oshiriladi. Biroq, atrof muhit ifloslanishining qiymati hisob-kitob qilinmaydi. Yangi qurilib ishga tushirilgan korxona uning rahbariga yiliga ma'lum daromad keltiradi, lekin korxona atrof-muhitga turli chiqindilarni chiqarib havo, suv tuproqni bulg'aydi, qishloq xo'jalik ekinlari hamda yaylovlarga ziyon yetkazadi, aholi sog'ligi yomonlashadi. Korxonaning to'lagan arzimagan solig'i e'tiborga olinmasa, uning



yetkazgan zarari yetarli darajada ko'p, uning bir yillik qiymati hisoblansa yillik daromadga yetib koladi, ba'zi hollarda undan ham ziyod bo'lishi mumkin. Gap shundaki, korxonaning atrof-muhitga yetkazgan ziyoni ob'ektiv hisob-kitob qilinmaydi. Shuning uchun ham joylarda ekologik vaziyat murakkablashib bormoqda.

Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'siri ma'lum, lekin ekologiyaning iqtisodiyotga ta'siri ancha murakkab kechadi. Bu ko'pincha tabiatning jamiyatga aks ta'siri bilan tushuntiriladi. Hududlarning tabiiy resurslari xo'jasizlarcha foydalanganda qashshoqlashadi, degradatsiyalashuv kuchayadi, boyliklarning miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlariga olib keladi. Bu ekologik va iqtisodiy o'zgarishlar hududning iqtisodiy potensialini kambagallashtiradi, eng muhimi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol og'irlashadi.

## **1.2. TABIAT BILAN JAMIYAT O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR TAHLILI**

Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning qo'pol tarzda bo'zilishi jamiyatda sinflarning vujudga kelishi bilan boshlandi. Sinfiy jamiyatning so'ngi pog'onalarida ushbu munosabatlar yanada chuqurlashib, murakkab tusga kirdi. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning keskinlashish sababi boylik ketidan quvish, oltin vasvasasi, mustamlaka tuzumining vujudga kelishi bilan hamnafasdir. Bunday jamiyatda inson ishchi kuchi, tabiat xomashyo-manbaiga aylanib, tabiatga qirg'in keltira boshlaydi.

Yevropa bozorlari talabini qondirish maqsadida minglab fil, sher, yo'lbars, karkidon kabi hayvonlar ayovsiz qirib yuboriladi. XIX asr so'ngigacha yiliga 60-70 ming fillar faqat qimmatbaho suyaklari uchun ovlangan. Qadimgi Gretsiya va Rim davlatlarida harbiy istehkomlar va kemalar ish uchun o'rmonlar jadal

kesilganligidan Yevropaning o'rta dengiz atrofi batamom yalangliklarga aylantirilgan. Oqibatda eroziya kuchaydi, yaylovlar yaroqsizlandi, katta maydonlar unumdor tuproq, qatlamidan butunlay mahrum bo'ldi.

Arxeologlar Markaziy Osiyo cho'llarida sug'oriladigan yerlar umumiy maydoni qadimda hozirgidan ancha katta bo'lganligini ta'kidlaydilar. Hozirgi cho'llardagi qadimgi bepoyon vohalar va shaharlar nafaqat turli urushlar tufayli, balki kishilarning cho'l tabiatiga ongsizlarcha munosabati natijasida tuproqlarda vujudga kelgan ikkilamchi sho'rlanish va qum bosish oqibatidir. Yerning tabiiy-meliorativ xususiyatlari hisobga olinmay sug'orilishi oqibatida sug'oriladigan dalalarda ma'lum vaqt o'tib sho'rlanish va botqoqlashish boshlangan. Tog' va tog' yon bag'irlaridagi qalin o'rmonzorlarning o'tin, «pista» ko'mir, qurulish materiallari tayyorlash maqsadida ayovsiz kesilishi oqibatida tog'lar yalangochlandi, qurg'okchilik kuchaydi, pastki mintakalarda ham o'simliklar siyraklashdi, yonbag'irlarda suv eroziyasi kuchaydi, tuproq, grunti yuvildi, sel hodisasi ortishidan jarliklar paydo bo'ldi. Yozma ma'lumotlarga ko'ra XIX asr oxirlarida Zarafshon daryosida har yili Turkiston va Zarafshon tog'laridan Samarqandga 26400 ta archa xodalari oqizilgan. Faqatgina O'zbekiston hudidagi qadimiy shaharlar (Toshkent, Buxoro, Samarqand, Shaxrisabz va boshk.) qurilishida ko'plab imoratbop archa daraxtlari ishlatilgani nazarda tutilsa, qancha-qancha daraxtlarga qirg'in kelganini tasavvur etish qiyin emas. O'sha davrlardayoq tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sezilarli darajada o'zgara bordi.

XVIII-XIX asrlarda texnik taraqqiyot tabiiy resurslardan, qazilma boyliklar, yer-suv resurslari, baliq zaxiralaridan foydalanish va yovvoyi hayvonlarni ko'plab ovlashning kuchayishiga imkon yaratdi. Sanoat ishlab chiqarishda avval bug' mashinalari, keyinchalik ichki yonuv dvigatellariga o'tilishi, shaharlar va sanoat

markazlarining o'sishi ko'plab zararli chiqindilar miqdorining ortishiga sabab bo'ldi.

Sanoatning kislorodga bo'lgan ehtiyoji orta borayotgan bir paytda, sayyoramiz o'simliklari ishlab chiqarayotgan kislorodning chorak qismiga yaqini inson tomonidan yoqib yuborilmoqda. Yana yiliga atmosfera tarkibidan ishlab chiqarish maqsadlari uchun 90 mln. t kislorod va 70 mln. t azot olinmoqda. Olimlarning xisoblaricha yiliga yoqib yuborilayotgan kislorodning 1% i qayta tiklanmay qolaversa, yana VI-VII asrdan so'ng Yer atmosferasi kislorod zaxirasining 70% ga yaqini tugashi mumkin ekan.

Inson xo'jalik faoliyati natijasida atmosferaga yiliga faqat turli yoqilg'ilar yoqish xisobiga 22 mlrd. t karbonad angidrid, 200 mln. t dan ortiq, uglerod oksidi, 160 mln. t sulfat oksidi, 50 mln. t azot oksidi, yana shuncha uglevodlar, 250 mln. t turli kimyoviy zarrachalar-aerozollar hamda 300 ming t qo'rg'oshin chiqarilmoqda.

Hozir inson quruqlik yuzasining 60% dan ortiq, qismdan o'z maqsadlari uchun foydalanayotgan bo'lsa (30% dan ortig'ida qishloq xo'jalikda, 11% da yerlarni haydab ekin ekmoqda), 20% dan ortig'ini turli qurilishlar tufayli butunlay o'zgartirib yuborgan (XX asrning o'zida bunday yerlar 250 mln.ra. ga ortdi), 100 mln. ga yer faqat shaharlar qurilishi bilan band, sanoatlashgan hududlarning yarmidan ortig'ini muhandislik qurilmalari egallagan. Ishlab chiqarish va maishiy ehtiyojlar uchun yiliga sayyoramiz bo'yicha 4000 km suv talab etilayotgan bir paytda suv havzalarining, xususan dunyo okeani ifloslanish darajasining hozirgi ahvoli juda achinarli holdir.

Hozir inson Yerdagi barcha kimyoviy elementlardan foydalanishdan tashqari yangilarini ham kashf etdi (XIX asrgacha 28 ta, XIX asrda esa 50 ta XX asr

boshlarida 59 ta kimyoviy elementdan foydalangan) . Yillik energiyaga bo'lgan ehtiyoj 15 mlrd. t shartli yoqilg'i hisobiga qondirilmoqda. Yer qa'ridan yiliga 5 mlrd. t ko'mir, 3 mlrd.t neft va gaz kondensati, 700 mln. t temir rudasi, bir necha o'n million t.fosfat va kaliy tuzlari, boksid, marganets rudasi, million tonnalab mis, kaliy, qo'rg'oshin, azbest, flkyurit, minglab tonna oltin, toriy va boshqa qazilma boyliklar olinmoqda. Agar mineral resurslardan foydalanish shu tarzda davom etadigan bo'lsa, mutaxassislar hisobi bo'yicha alyuminiy 550, ko'mir 500, temir 250, qalay 23, qo'rg'oshin esa 19 yilga yetishi mumkin. Umuman 2500 yilga borib, barcha metallar zahirasi batomom tugaydi, degan bashoratlar mavjud .

XX asrda amalga oshirilgan qator yirik kashfiyotlar insoniyatning tabiatga va unda sodir bo'layotgan hodisalarga munosabatida inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Endilikda insoniyat fan-texnika taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Iqtisodiyotning deyarli barcha sohalarida komp'yuter, mikroelektronika, informatika va biotexnologiya yutuqlaridan keng foydalanish ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirishi bilan birga tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishga yo'l ochayotgan bo'lsada, fan-texnika yutuqlarini hayotda keng qo'llanilishi tufayli tabiatda bir qator muammolar ham vujudga keldi. Bunday noqulay ekologik sharoitlar hayot maqomining o'zgarishiga, kishilarning jismonan va ruhan toliqishiga, ularda turli surunkali og'ir kasalliklarning paydo bo'lishi bilan birga, katta miqdorda ijtimoiy-iqtisodiy zarar ham keltira boshladi. Endi tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yo'nalishi faqat ilmiy asosda tabiatni, umuman biosferani saqlashga qaratilmog'i darkor. Inson biosferaning vazifasini yengillashtirishga yordam berishi lozim <sup>2</sup>, deb yozadi, akademik S.S.Shvars — aks holda u vayron bo'ladi va yerda hayot yo'qoladi. Inson aslo bunga yo'l quymasligi kerak. Ammo vujudga kelgan

---


<sup>2</sup> Akademik S.S.Shvart

ekologik muammolarni bartaraf etish o'ta dolzarb, murakkab, serqirra, jumladan: iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy va ilmiy masaladir. Uni ilmiy asosini yaratishda ekologiya fanining ahamiyati beqiyosdir.

Inson xo'jalik faoliyati bilan bog'liq barcha ifloslanishlarni ba'zan antropogen ifloslanish, deb ataladi. Antropogen ifloslanish tabiat komponentlari bo'yicha: suvning ifloslanishi, havo yoki tuproqning, yana shuningdek, landshaftlarning ifloslanishi kabi guruhlardan iborat. Antropogen ifloslanish davomiyligiga ko'ra: vaqtinchalik va doimiy; tarqalish ko'lamiga ko'ra: sayyoraviy (global), hududiy (regional) va mahalliy (lokal) guruhlarga ajratiladi. Ifloslanish turi va manbalari jihatidan: fizik, kimyoviy, biologik, mexanik va boshqa turlarga bo'linadi. Ularning yana qator tarmoqlari bor. Masalan, fizik ifloslanishning o'zi issiqlik, yorug'lik, shovqin, radioaktiv, elektromagnit bilan ifloslanishga ajratiladi. Antropogen ifloslanish kuchaygan sari turli muammolarni, ba'zan inson hayoti uchun o'ta xavfli ekologik muammolarni keltirib chiqarayotganligi kun sayin ravshanlashmoqda. Ayniqsa, ushbu muammolarning ta'sir kuchi va ko'lami ortib borayotganligi juda tashvishli holdir.

### **1.3.EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MASALALARI**

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash, degradatsiya jarayonini keltirib chiqaruvchi omillar hamda atrof-muhit muammolarini bartaraf qilish borasidagi masalalarga Markaziy Osiyo hududida ro'y berayotgan bir qancha muammolar kirib, ular quyidagi jadvalda keltirilgan. Mazkur muammolarni bartaraf etish yuzasidan BMT qoshidagi turli ekologik, xalqaro tashkilotlar ishlarni olib bormoqdalar.



IQLIM O'ZGARISHLARI keyingi paytlarda barcha mintaqalardagi hayot tarzini tashvishga solayotgan muammolardan biridir. Mazkur masala yuzasidan fandagi eng so'nggi ma'lumotlar quyidagicha:

1907-2006 yillarda:

- Yerning ustki qismida o'rtacha haroratning ko'tarilishi  $+0,7^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etadi;

- Dunyo okeani o'rtacha sathining ko'tarilishi  $+0,17\text{ m}$ .ni tashkil etadi.

- Shimolda qor qatlamining kamayishi keying o'n yilliklarda  $-2,7\%$ ni tashkil etadi.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING 1992 yilda qabul qilingan Iqlim o'zgarishlari to'g'risidagi konvensiyasi YUNEP va xalqaro meteorologiya tashkiloti bilan birgalikda ishlab chiqilgan. Mazkur konvensiyaga inson faoliyatitufayli asta sekinlik bilan global haroratning ko'tarilishi natijasida havoning global qizib ketishiga qarshi kurash borasida boshlangan harakatlar asos bo'ldi. Rioda imzolangan mazkur konvensiyani 1998 yilga kelib 174 mamlakat ratifikatsiya qildi. Iqlim o'zgarishlari muammolari bo'yicha BMT faoliyati haqida maxsus tashkil etilgan Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi axborotlar berib turadi. Mazkur guruh 1988 yilda tashkil topgan bo'lib, 2500 nafar olimdan iboratdir, uning faoliyatini YUNEP va Butunjahon meteorologiya tashkiloti muvofiqlashtirib turadi. Ekspertlar tomonidan 1995 yilga kelib, "Inson global iqlimga sezilarli ta'sir ko'rsatadi" degan xulosaga kelindi. 1997 yilda Kiota shahrida huquqiy majburiy protokol imzolanib, unga muvofiq sanoati rivojlangan mamlakatlar 2008-2012 yillar mobaynida o'zlari chiqarayotgan olti xildagi gazni 1990 yildagidan ham 5,2 foizga kamaytirishlari kerak bo'ladi.

Orol dengizining fojeasi shundaki, ekologik muvozanatning buzilib ketishi mazkur hududdagi suv zahiralarini maqsadsiz sarflanishiga, natijada esa yagona suv havzasi bo'lgan ko'lning qurishiga olib keldi. Hozirda uning qirg'oqlaridan ko'tarilayotgan chang-to'zonlar 400 km uzoqlikkacha yetib borib, hosildor yerlarga zarar yetkazmoqda. Hozirgi kunga kelib, Orol dengizi muammosi nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo oldida turgan eng dolzarb muammodir. Orol dengizining qurishiga quyidagilarni sabab qilib ko'rsatish mumkin:

- Ko'p suv talab qiladigan ishlab chiqarishning rivojlantirilishi;
- Qishloq xo'jaligi ekinlarining ekologik jihatdan asoslanmagan tuzilmalari joriy qilinishi, suv ko'p talab qilinadigan ekinlar, birinchi navbatda paxta va sholining katta maydonlarda ekilishi;

- Qator hollarda yerlarni kengaytirish va sug'orish ishlari sifatiga e'tibor berilmasligi;
- Hosildorligi past, melioratsiyalash qiyin bo'lgan yerlarni o'zlashtirilishi;
- Sug'orish tizimlarini loyihalashtirish ishlarining sifatsizligi;
- Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish va uning ekologiya tizimiga ta'sirining muqobil yo'llarini izlamaslik;
- Katta miqyosda amalga oshiriladigan jami ishlarning ekologik oqibatlarini tahlil etmaslik;

Aholi hayot kechirishi sifatlarini yaxshilashga qaratilgan butun xo'jalik faoliyatining kuchsizligi va hokozalar.

**ATROF MUHITNING TRANSCHEGARAVIY IFLOSLANISHI.** Atrof muhitning musaffoligi, ona zaminning pokligi, unga xos bo'lgan tabiiy unsurlar: suv, havo va tuproqning tarkibini ozoda saqlash hozirgi davrdagi eng asosiy muammolardan biridir. Har bir hududning musaffoligi nafaqat mazkur hududga xos bo'lgan, balki tevarak atrordagi boshqa maydonlarni ham ekologik tozaligi uchun xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida juda yirik sanoat korxonalari joylashganligi bilan alohida ajralib turadi. Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish jarayonida ma'lum miqdordagi chiqindilarni atrof muhitga chiqarishi mazkur hududda ekologik muvozanatni izdan chiqarishi bugungi kunda hech kimga sir emas. Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi tomonidan mazkur hududda sanoat korxonalari chiqindilarini nisbatan zararsiz holatga o'tkazish yuzasidan ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bituruv malakaviy ishi sifatida mazkur mavzuni tanlashimdan asosiy maqsad tabiatni muhofaza qilishga ozgina bo'lsa o'z hissamni qo'shishqir.




Ekologik inqirozning keskinlashib ,hayot-mamot masalasiga aylanishi bilan jamiyatning rivojlanishini ekologik faoliyat samaradorligiga bog'lash zaruriyati vujudga keldi.

Dunyo mamlakatlarida ekologik inqirozni chuqurlashtirayotgan yirik omillardan biri sayyoramizning turli nuqtalarida yuz berayotgan harbiy harakatlar, urushlardir. Yuzaki qaraganda urushlarning asosiy maqsadi bevosita tabiiy atrof-muhitga zarar yetkazib, ekologik muvozanatni buzishga qaratilgan emas. Xususan, urush vaqtida dushmanga qarshi kurashda yong'inlardan, yoki suv bostirishdan foydalanilgan. Masalan, qadimgi yahudiylarning afsonaviy qahramoni Samson falastinliklarga qarshi kurashda 300 tulkinning dumiga o't yoqib yuborishi natijasida bog'lar va dalalar yonib ketgan.Mug'ul istilochisi Chingizxon 1219-yilda Urganch sharini olti oy qamal qilgan, natija bermagandan so'ng Amudaryoni to'sib shaharni suvga bostirgan.Eron-Iroq, Iroq-Quvayt urushlari Fors ko'rfazidagi hayvonot va o'simliklar dunyosiga katta zarar yetkazdi.

Global ekologik kollaps xavfining o'ziga xosligi faqat oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmasligi yoki tabiiy resurslarning tugashidangina iborat emas. Bu ikki muammoga yana atrof-muhitning ifloslanishi muammosi qo'shildi. Bu XXI asrning global muammosiga aylanib,ichimlik suvi keskin kamaydi. Ko'plab miqdordagi yoqilg'ilarning yonishi, o'rmonlarning kesilib ketishi, okeanlarning neft mahsulotlari va pestisidlar bilan ifloslanishi – atmosferada kislorodning kamayishiga olib keladi.

## EKOLOGIK MUAMMOLARNI KOMPLEKS XARAKTERI



Atrof-muhitni muhofaza qilish XX asrning oxiriga kelib global muammoga aylandiki, endilikda mazkur muammoni hal etishning kechiktirib bo'lmaydigan sabablari juda ko'p. Respublikada tabiatdan va uning resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha qator tadbirlar ishlab chiqilgan bo'lib, bular Tabiat muhofazasi va O'zbekiston Respublikasi Barqaror taraqqiyotini ta'minlash bo'yicha "Milliy harakat rejasi", "Biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha harakat rejasi va Milliy strategiyasi ishlab chiqildi, Atrof-muhitni muhofazasi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar:

➤ Chiqindisiz ishlab chiqarish, ekologik sof texnologiya yaratish, havo va oqava suvlarni tozalash, yerni rekultivatsiya qilish, tuproq mahsuldorligini oshirish maqsadida yo'lga qo'yiladigan melioratsiya ishlari.

➤ Turli kimyoviy moddalarning mutagen faolligini aniqlash, irsiy kasalliklarni davolash usullarini ishlab chiqish.

➤ O'simlik va hayvonot olamini himoya qilish. Qo'riqxonalar va zakazniklar, milliy bog'lar, tabiiy hududlarni yaratish, tabiat yodgorliklarini asrash, yo'qolib ketayotgan o'simlik va hayvonlarni O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritish, nodir turlarni sun'iy ko'paytirish va ularni tabiatda keng tarqatish, sayyoramizning fauna va flora genofondini saqlash.

➤ Kishilarda ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish borasida ta'lim-tarbiyaviy ishlar olib borish.

O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida, atrof-muhit sifatini boshqarish tizimida ekologik nazorat davlatning tabiatni muhofaza qilish funksiyasi, muhit sifatini boshqarish tizimining tarkibiy elementi, tabiatni muhofaza etish me'yorlarining bajarilishi samaradorligi kafolati tarzida namoyon bo'ladi.

Ekologik nazorat muhit sifatini ta'minlash bo'yicha boshqarish tizimining ajralmas qismi va shu bilan birga uning huquqiy mexanizmi ishlashining zaruriy shartidir.

Ekologik nazorat obyektlari: tabiiy muhitning holati, tabiatdan foydalanuvchilar tomonidan tabiatni muhofaza etish tadbirlarining bajarilishi, vazirliklar, idoralar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarning tabiat muhofazasi haqidagi qonunlarga amal qilishdir. Maxsus dasturlar asosida respublikamizning barcha hududlarida tabiiy muhit holati o'rganiladi va muntazam tekshirib turiladi.

Ekologik nazorat natijasida tabiatga bo'lgan munosabat o'zgaradi. Korxona rahbarlari va ishchi-xodimlarining atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlarini, o'zlarida ma'suliyat hissini kuchaytirishlarini talab qiladi. Ekologik muammolarning chegara bilmasligi, bir mamlakat hududidan boshqa mamlakatlarga ham o'tib ketishi, butun dunyo aholisini tashvishga solmoqda. Ekologik muammolar keltiradigan zararli oqibatiga qarab, yadro qurolidan so'ng, ikkinchi o'rinda turadi. Tojikiston Respublikasi Tursunzoda shahridagi alyuminiy zavodi, Qirg'iziston Respublikasidagi Mayli suv korxonasi, Rog'un GESi kabi yirik sanoat korxonalarining atrof muhitga keltiradigan zarari chegara bilmas muammolar qatoriga kiradi.

SUV VA ENERGETIK RESURSLARI BOSHQARUVI, Mustaqil Respublikada kimyo, metallurgiya, mashinasozlik, transport, energetika va sanoatning boshqa tarmoqlarida foydalaniladigan qurilmalarning quvvatini oshirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, hozirda qo'llanilayotgan bitta ammiak ishlab chiqarsih qurilmasi, ilgari qo'llanilgan bir nechta qurilma o'rnini egalladi. Qurilmalarning bir marta ishlab chiqarish quvvatini oshirish unga bo'lgan eksplutatsiya xarajatlarini kamaytiradi. Masalan, 5000 m<sup>3</sup> hajmli domna pechini qurish 5 ta 1000 m<sup>3</sup> hajmli domna pechlari qurishga nisbatan 2,5 baravar arzon bo'lib, eksplutatsion xarajatlari esa ikki marta kamdir. Chiqindisiz texnologiyani ishlab chiqarishda qo'llash bir necha yo'nalishda olib boriladi:

- Suvni minimal talab qiluvchi texnologik jarayonlarni ishlab chiqish;
- Mavjud xom ashyolar o'rniga zaharsiz xom ashyolarni qo'llash;
- Energo-texnologik sxemalarni qo'llash;
- Oqava suvlarni, gazlarni va qattiq chiqindilarni tozalash uchun yuqori samarali tozalash usullarini qo'llash;
- Chiqindisiz ishlab chiqarishda xom ashyodan va energiyadan maksimal va to'liq foydalanish kerak;

- Jarayonning selektivligini oshirish uchun qo'shimcha moddalar va chiqindilarni zararsizlantirish, kamaytirish, texnologik jihozlarni va tozalash usullarini yangilash kerak;

Agar mumkin bo'lsa, suv aylanishidan maksimal foydalanish yoki oqava suvlarsiz ishlab chiqarishga erishish kerak. O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyagining 85 foizini IESlar beradi. 1950-yilda O'zbekiston umumiy energetika balansida ishlab chiqarilgan elektr energiyasining 64,5 foizi GESlar hissasiga to'g'ri kelgan. Keyinchalik tabiiy gaz konlarining boy zahiralarini topilishi elektr energiyaning IESlarda ko'p ishlab chiqarilishiga sabab bo'ldi. Mamlakatimizda IESlar XX asrning 50-60-yillarida tabiiy gaz konlari zahiralarining topilishi bilan rivojlana boshladi. Hozirgi kunda ular O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning asosiy qismini tashkil qiladi. IESlarni joylashtirishda quyidagi tamoyillarga e'tibor beriladi:

1. Agar yoqilg'i tashib ketish xarajati elektr energiyani ishlab chiqarish xarajatidan yuqori bo'lsa, elektr stansiya yoqilg'i manbaiga yaqin joyda quriladi. Bunga misol tariqasida Angren, Yangi Angren GESlarini ko'rsatish mumkin, chunki ko'mirni Toshkentga tashib olib kelib, elektr energiya hosil qilgandan ko'ra xom ashyoni o'sha yerning o'zida yoqish arzonroq tushadi.

2. Agar energiyani uzatish qimmatga tushsa, GESlarni iste'molchiga yaqin joyda qurish foydalidir. Bunga Toshkent, Navoiy, Taxiatosh, Sirdaryo GESlari misol bo'ladi. Bu turda xom ashyoni keltirish elektr energiyani uzatishga qaraganda arzon.

**TUPROQ DEGRADATSIYASI.** O'zbekistonning o'ziga xos iqlim sharoiti qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish bilan birga, ekinlarga zarar yetkazuvchi har xil hasharotlar va zamburug' kasalliklarining ko'payishiga ham sabab bo'ladi. Qishloq xo'jalik ekinlariga har xil kanalar, bakteriyalar, zamburug'lar, viruslar va boshqa bir qator zararkunandalar juda katta

zarar yetkazishi mumkin. O'simliklarni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish uchun ishlatilayotgan kimyoviy vositalarning aksariyati universal ta'sir kuchiga egaligi bilan ajralib, mazkur moddalarning umumiy atamasi pestidsid, lotincha pestis-zahar, zid-o'ldirmoq, yo'q qilmoq degan so'zlardan olingan. Ularning kimyoviy tarkibi, qaysi maqsadlar uchun qo'llanilishiga qarab, shuningdek, zararkunandalar organizmiga o'tish usuli hamda ta'sir qilishiga qarab guruhlarga bo'linadi.

Qishloq xo'jaligida o'simlik zararkunandalariga, kasalliklariga, begona o'tlarga qarshi shuningdek, boshqa maqsadlarda foydalaniladigan zaharli kimyoviy moddalar bilan ishlanar ekan, bu ta'sirchan moddalar ma'lum miqdorda tashqi muhitga tarqalib, uni ifloslantiradi. Buning oqibatida suv, havo, tuproq, oziq-ovqat ekinlari, yem-xashak va boshqalarning pestidsidlar bilan ifloslanib qolish xavfi tug'iladi. Buning uchun birinchi galda zaharli kimyoviy moddalar qanday yo'l bilan tashqi muhitni ifloslantirishi mumkinligini aniqlab olish kerak. Shu nuqtai nazardan qaraganda tashqi muhit ta'siriga ancha chidamli bo'lgan pestidsidlar – DDT, GXSG, pentaxlorbenzol, polixlorpinen, polixlorkamfen va boshqalarning qanday o'zgarishlarga uchrashi mumkinligini bilish katta ahamiyat kasb etadi. Sug'oriladigan, dehqonchilik rivojlangan nohiyalarda bu ta'sirchan moddalarning tashqi muhitdagi bir ob'yektdan boshqasiga o'tib turishi ancha oson bo'ladi, chunki bunday joylarda pestidsidlar ekinlarga beriladigan suv orqali tashqi muhitning boshqa ob'yektlariga, ya'ni suvdan tuproqqa, tuproqdan o'simlikka o'tib turadi. Tashqi muhitga chidamli pestidsidlar ayniqsa xavflidir, chunki ular asta-sekin to'planib, odam hamda hayvonlar organizmiga tushish xavfi tug'iladi. Pestidsidlar suv, oziq-ovqat mahsulotlari bilan organizmga tushib, uning surunkali zaharlanib borishiga sabab bo'lishi mumkin.

Zaharli kimyoviy moddalarning tashqi muhitda to'planib borishi odam organizmiga ham fojiali ta'sir qilishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sevin singari ayrim pestidsidlarning o'rtacha haroratda ham bir sferadan boshqa

sferaga o'tib, odam salomatligi uchun xavf soladigan miqdorda to'plana borishi aniqlangan. Tuproqda bir-ikki yilgacha saqlanib qolish xususiyatiga ega bo'lib, bu tuproq va boshqa ob'ektlarning ifloslanishiga sabab bo'ladigan ikkilamchi manba bo'lib qolishi mumkin

Ma'lumotlarga qaraganda, insonning hayotiy faoliyati natijasida tuproq o'zining normal tabiiy holatini yo'qotib, sanoat chiqindilari, zaharli kimyoviy moddalar, mineral o'g'itlar, kislota va ishqorlar, polimer moddalar bilan ifloslanib bormoqda.

**ATMOSFERA HAVOSINI IFLOSLANISHI.** Atrof muhitning ekologik holati va hududlar ekologik muvozanatining bo'zilib ketishi ko'p jihatdan atmosfera havosining tarkibiga bog'liq. Bu o'zgarishlar sayyoraviy, regional va mahalliy masshtablarda ro'y beradi. O'zbekiston hududining o'ziga xos tabiiy xususiyatlari, uni ekologik xo'jalik rayonlariga ajratishga va har bir mintaqaga yer, atmosfera havosining ifloslanish potensialini aniqlashga imkon beradi. Atmosfera havosini ilmiy bashorat qilishda shamollarning takrorlanishi, qancha vaqt surunkali esishi va boshqa xil ko'rsatkichlardan foydalanilib, yer yuzasida havoning ifloslanish potensialining (AHIP) Respublika hududida 2,4 dan 3,3 gektargacha o'zgarishi qayd qilinadi. Chunonchi, bu ko'rsatkich Ustyurtda 2,4- 2,7 , Quyi Amudaryoda 2,6- 3,0 , Qizilqumda 2,7, Quyi Zarafshonda 2,7- 3,0 , Chirchiq, Ohangaron tunanida 3,0-3,3, Mirzacho'lda 2,7- 3,3 , Farg'ona vodiysida 3,0- 3,3 , Samarqandda 2,7- 3,3 , Qashqadaryo havzasida esa 2,7- 3,3 gektarga teng. Chirchiq- Ohangaron va Farg'ona mintaqalarida atmosfera havosi ifloslanish darajasining kattaligiga sabab bu yerdagi hududiy ishlab chiqarish majmualari nisbatan rivojlanganligida, avtotransport harakatlarining serqatnovligi, tog'- kon sanoatining salbiy ta'siri va qishloq xo'jaligida zararli kimyoviy moddalardan ortiqcha miqdorda foydalanishdadir.

Respublikada havoni bulg'ayotgan 3500 doimiy manba bo'lib, ularning yarmiga yaqini chang va turli xil zararli gazlarni tutib qoluvchi va tozalovchi moslama ega. Bu moslamalarning 4,1 qismi samaradorligi juda past. Atrof-muhitning me'yoridan ortiqcha ifloslanishi, ayniqsa, yirik shaharlarga xos. O'zbekiston Respublikasida Olmaliq, Farg'ona, Bekobod, Andijon, Ohangaron, Angren, Toshkent, Samarqand, Navoiy shaharlari atmosferasi eng ko'p ifloslangan shaharlar jumlasiga kiradi. O'zbekiston yer usti havosining ifloslanishi 1983- yil eng yuqori darajaga yetib, so'nggi yillarda ahvolning birmuncha yaxshilanishi qayd qilingan. Sanoat shaharlarida havoni ifloslantiruvchi asosiy moddalar oltingugurt II oksididir.

Atmosfera havosini buzuvchi omillardan biri avtomobil transportidir. Toshkent atmosfera havosining ifloslanishida shahar transportining hissasi 80 foizdan ortadi. Keyingi yillarda atmosfera havosining tozaligi ustidan nazoratining kuchaytirilishi, havo tozalagich moslamalardan ko'plab foydalanilishi, mutaxassislar mas'uliyatining oshishi, "Ekosan" Xalqaro ekologik va salomatlik jamg'armasining faol sa'y-harakati natijasida O'zbekiston Respublikasida bir qancha ijobiy siljishlar ro'y bermoqda.

CHIQUINDILAR BOSHQARUVI. Hozirgi kunda havoni zararli gaz va zarralardan tozlashda turli xil usullardan foydalanilmoqda.

Bular asosan ikkita katta guruhga bo'linadi.

- Kimyoviy usullar havoni zararli gazlardan tozalashda ishlatiladi. Turli sanoat ob'yektlaridan chiqadigan karbonat angidrid, oltingugurt (1V) oksid, azot (II) oksid, fenol va boshqa gazlar kimyoviy birikmalardan tarkib topgan filtrlovchi uskunalar yordamida tutib qolinadi. Yoki turli katalizator yordamida saqlab turiladi.



- Fizik usullar guruhi havodagi zaharli gaz, qattiq va suyuq qo'shilmalarni chang, tutun va boshqalarni tozalaydi.

Hozirgi vaqtda sanoat tarmoqlaridan atmosferada iflos gazlarni tozalab chiqarishda turli chang va mayda zarralarni tutib qoladigan oddiy filtrli uskunalardan foydalaniladi. Bu usullar gruppasi arzon energiya hisobiga havodagi juda mayda chang zarralarini quruq holda tutib turadi.

Sanoat korxonalari atroflaridagi havoni chiqindilardan tozalash texnologiyasi murakkab va qimmatlidir. Respublikada atmosferani muhofaza etishda doir bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Masalan, "Qizilqumsement" ochiq hissadorlik jamiyati "Ekologik toza" texnologiyalarni qo'llash hisobiga har bir tegirmondan atrof-muhitga chiqarilayotgan sement gardi sekundiga 123,9 kilogrammdan 2,19 kilogrammgacha kamaydi, buning evaziga 27 million so'm sof foyda olindi. "Havoiazot" hissadorlik jamiyati bir yilda atrof-muhit muhofazasi tadbirlariga 250 million so'm sarflab, evaziga esa qo'shimcha 200 million so'm sof foyda olish bilan birgalikda katta miqdordagi chuchuk suvni tejashga ham erishadi. Hozirda Navoiy tog'-metallurgiya kombinatiga qarashli Markaziy kon boshqarmasining 15ta tarmoqlarida tabiat ifloslanishi oldini olish borasida keng ko'lamdagi tadbirlar olib borilmoqda. Birgina "Muruntau" konidagi chang ushlagichlar ishini doimiy yaxshilash hisobiga har yili kondan chang ajralib chiqishi 320-340 tonnaga kamaymoqda, 2-gidrometallurgiya zavodining 1-navbatida changlarni namlab ushlab qolish natijasida har yili atmosferaga chiqadigan chang miqdori 800-815 tonnaga kamaydi.

**BIOLOGIK XILMA-XILLIKNING KAMAYISHI.** Biologik xilma-xillikning saqlab qolish masalasi ,uni muhimligi hozirgi vaqtda dunyo jamoatchiligi tomonidan tan olingan masaladir.Bu sohaga BMT rahbarligida "Inson va biosfera" Xalqaro dasturi doirasida e'tibor qaratilmoqda.1992 yilda Rio-de Janeyroda BMT tomonidan atrof muhit masalalariga bag'ishlangan

konferensiyada Biologik xilma xillikka doir konvensiya qabul qilingan edi.1998 yilda Biologik xilma xillikni saqlash Milliy strategiya va harakat rejasi qabul qilindi.Mazkur masala mamlakat iqtisodiyotida ham katta ahamiyatga egadir.Tabiatda turlar sonining kamayishi ,bir tomondan ularni o'zi uchun xavfli bo'lsa,ikkinchi tomondan genetik xilma xillikning pasayishiga olib keladi.Mazkur muammo hozir hududiy doiradan chiqib mintaqaviy va umumbashariy muammoga aylangan.Ona tabiatni ozoda saqlash, barchamiz uchun muqaddas bo'lgan suv ,havo, zaminni pokiza saqlash, bizga ota bobolarimizdan qolgan muhim hayotiy saboqdir.

Ekologik ta'lim tarbiyaga oid bo'lgan asriy tajribalarni davom ettirish,uni yosh avlod qalbiga chuqur singdirish hozirgi davrning muhim talablaridan biridir.

## **II.BOB.GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR,XAVF HAMDA TAHDIDLAR**

### **II.1.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MASALALARI**

Inson tabiat bilan o'zaro aloqada bo'lib, uning hayotini tabiatdan alohida tasavvur qilish mumkin emas. Shu ma'noda Prezidentimiz I.A.Karimovning "Ona zaminimiz–boyligimizning, mustaqilligimizning va go'zal kelajakka ishonchimizning asosiy manbaidir" – degan so'zlarida juda katta ilmiy-falsafiy mazmun bor. Insoniyat yashayotgan zaminning o'z qonuniyatlari mavjud bo'lib, zaminda bitmaydigan, tugamaydigan ne'matning o'zi yo'q.

Inson tabiatning shunchaki bir qismi emas, balki uning ongli, aql idrokli va faol mavjudotidir. Inson hech qachon tabiatdan tashqarida, u bilan doimiy aloqa va munosabatdan bo'lmasdan turib yashamagan va yashay olmaydi ham. Tabiiy resurslar, ya'ni yoqilg'i, ma'danlar, metallar, nafas olinadigan havo, ichiladigan suv, is'temol qilinadigan mahsulotlar, shifobaxsh giyohlar, turli-tuman xom ashyolar tabiat tomonidan insonga in'om etilgan buyuk ne'matlardir.

Sayyoramiz kelajagi, insoniyatning taqdiri hozirgi davrda ko'p jihatdan ekologik muammolar yechimiga bog'liq bo'lib qoldi. Ekologik muammolar keyingi o'n yilliklar davomida yana keskinlashib ketdi. Havoning ifloslanishi, ichimlik suvning o'ta taqchilligi, ona zaminning zaharlanishi, ekish va hosil olish mumkin bo'lgan unumdor yerlarning, yer osti va yer usti boyliklarining, o'simliklarning va hayvonlar nodir turlarining kamayib borayotganligi hamda atmosfera haroratining sezilarli darajada oshib borayotganligidan insoniyat behad azob chekmoqda.

XX asrning oxiri va XXI asrning dastlabki kunlarida butun insoniyat katta ekologik xavfga duch keldi. Ekologik muammolar qachonlardir milliy va

mintaqaviy muammolardan chiqib butun insoniyatning muammosiga aylangan. Hozir sayyoramizda quyidagi global ekologik muammolar o'z yechimini kutmoqda:

- Atmosfera havosining ifloslanishi va unda  $O_2$  ning kamayishi;
- Havo haroratining ko'tarilishi;
- Suv sathining ko'tarilishi;
- Sun'iy tog'lar hosil bo'lishi;
- Ichimlik suv va suvning ifloslanishi;
- Tuproq erroziyasi va uning ifloslanishi;
- Atmosferada ozon qatlami ( $O_3$ ) ning yemirilishi;
- Aholining demografik o'sishi va hokazolar.

Ekologik muammolarni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, dunyo tamadduning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ekologik muammolarning ijobiy hal qilinishiga bog'liqdir.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar bilan hamkorlikda tabiatni, atrof muhitni himoya qilish, tabiiy zahiralaridan oqilona foydalanish masalalariga katta ahamiyat berilib, uning natijasi o'laroq, atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan qonun hujjatlari Respublikamizda ko'plab qabul qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida belgilab qo'yilganidek "Fuqarolar atrof, tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlar".

Insoniyatning kelajak taqdiri hozirgi davrda mavjud ekologik muammolarni hal qilinishiga, ulardan aholini, tabiatni qanday muhofaza qilishga bog'liq bo'lib qoldi.

Uzoq yillar davomida eski ma'muriy buyruqbozlik tizimi sharoitida Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekologik muammolarga e'tibor berilmadi. Sobiq ittifoq zamonida atrof-muhit va atmosfera havosining ifloslanishi, toza ichimlik suvi yetishmasligi tashvishli holat ekanligi haqida bilib, bilmaslikga olindi. Sho'ro tuzumi davrida inson tabiatni o'z irodasiga bo'ysundirishi lozim degan soxta aqida uzoq yillar ustuvorlik qildi. Natijada barcha hududlarda ekologik muvozanat qo'pol ravishda buzilib, tashvishlanarli ekologik vaziyatlar yuzaga keldi. Tabiat ne'matlarini suiste'mol qilish, ochofatlik, ko'proq boylik undirib olish nuqtai nazaridan munosabatda bo'lindi.

O'zbekiston Respublikasiga eski mustabid tuzumdan paxta yakka hokimligi va xom ashyo resurslaridan nazoratsiz foydalanish asosiga qurilgan iqtisodiyot og'ir meros bo'lib qoldi.

Hududimizda yuz bera boshlagan ekologik inqiroz nihoyatda keskinlashib, ijtimoiy tus ola boshladi. Ekologik tanazzuldan esa keng jamoatchilik tashvishga tushishi tabiiy hol, albatta. Tabiatga qo'pol va takabburlarcha munosabatda bo'lish, insoniyat genofondning o'zgarib ,yo'q bo'lib ketishiga olib keldi.

Boshqa mintaqalarda sodir bo'lganidek Markaziy Osiyoda, O'zbekistonda ham ekologik muammolar dolzarb bo'lib qoldi. Mamlakatdagi eng xavfli ekologik muammolar toza havo, ichimlik suvi, tuproq tarkibining bo'zilishi va Orol dengizining qurishi muammolari hisoblanib, mazkur muammolarning har birini ilmiy asoslangan holda qarash, tahlil qilish, oldini olish chora-tadbirlarini belgilaydi.

Havoning , suvning ifloslanishi, hududlarning qayta cho'llanishi, bog'larning qurib qolishi va shunga o'xshash muammolarni birgalikda oldini olishimiz, bartaraf etishimiz lozim. Mamlakatimizda tabiatni muhofaza qilishga doimo e'tibor bilan qaralgan. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun ham aynan tabiatni, atrof-muhitimizni asrashga qaratilgan tadbirlardan hisoblanadi.

Qonunda, muhofaza qilish obyektlari,tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, Oliy Majlisning tabiatni muhofaza qilishga oid huquqiy munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi hokimiyat va boshqaruv idoralarining, tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining ushbu sohadagi vakolatlari keng ko'rsatib berilgan.

O'zbekiston tabiiy ekosistemasiga ko'proq quyidagi antropogen omillar guruhi ta'sir etadi:

- Yerlarni o'zlashtirilishi, suv resurslarini qayta taqsimlanishi;
- Qazilma xom ashyolarni qazib olish va energetika sanoati.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 2009-yildan 22-aprel kunini Xalqaro Ona-Yer kuni deb e'lon qilgan va uni nishonlashga qaror qilgan.Shu kuni jahondagi barcha mamlakatlarda turli tadbirlar va aksiyalar o'tkazilib,insoniyat e'tiborini Yer muammolariga qaratishga harakat qilinadi. Tinchlik qo'ng'iroqchalari jaranglab, insonlarni sayyoramiz yagonaligini his etish,barcha kuchlarni dunyoda xavfsizlikni ta'minlash,xalqaro tinchlikni saqlash va barcha insonlarni yagona uyi hisoblangan Yerni himoya qilishga chorlaydi.

Insoniyat yer resurslarini bitmas-tuganmas emasligini unutgan holda ushbu resurslarga asoslanmagan va o'sib boruvchi talablarni qo'ymoqda. Kishilik

tarixining butun davrida, insonlar tabiat in'omlaridan faqatgina o'z farovonligi va rivojlanishi yo'lida foydalanib kelishgan. Biz esa tez-tez tabiatdan oldik va o'rniga hech narsa bermadik. Hozirgi vaqtda tabiatdan nooqilona foydalanishning oqibatlari ochiq-oydin ko'zga tashlanmoqda. Iqlimning o'zgarishi, ozon qatlamining yemirilishi, biologik xilma-xillikni tez sur'atlar bilan yo'qolib borishi buning yorqin dalilidir...<sup>3</sup>

Sanoatning rivojlanishi va tabiiy resurslarning maishiy maqsadlarda ishlatilishi, suvlarni ifloslantirish orqali mahalliy ekotizimlarga zararini yetkazadi. Bundan tashqari, mamlakatning ayrim qismlarida, ayniqsa cho'l ekosistemasiga foydali qazilma boyliklarni qazib olish va metallurgiya sanoati katta zarar yetkazmoqda.

Biologik resurslarni saqlash tomonlariga va ekologik barqarorlikni saqlab turishga katta ahamiyat berilishiga qaramasdan, yuqoridagi omillar o'zining salbiy oqibatlari harakatini o'zgarmagan holda davom ettirmoqda. Shunday qilib, agar kelajakda sodir bo'ladigan holatlarni oldini olmoqchi bo'lsa, maxsus chora-tadbirlar qabul qilish talab etiladi. O'zlashtirilgan yerlar umumiy maydonini 10% ni tashkil etilishiga qaramasdan, O'zbekiston va qo'shni mamlakatlar ekologiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi, buni ayrim ekosistemalarni to'liq buzilganligi va boshqalarining maydonini keskin qisqarganligini ko'rish mumkin. Hamma ekosistemalar ma'lum darajada o'zgargan. Ekosistemaga yetkazilgan zarar arealini to'g'ridan-to'g'ri bo'zilishidan boshlab, bilvosita va effektivlikni o'lchashga kam imkon berishigacha farqlanadi (masalan, iqlimni va gidrologik siklni o'zgarishidan bo'ladigan).

---

<sup>3</sup> BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun, Xalqaro Ona Yer kuni munosabati bilan 2010 y 22-aprelda yo'llagan maktubidan

Yerlarni o'zlashtirilishining rivojlanishi mamlakat hududining asosiy qismini tashkil etgan cho'l, yarim cho'l va tog' ekosistemalariga kam bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shunga qaramsdan, ancha katta to'g'ridan-to'g'ri bo'lmagan effektni asosan o'zgarishga yuqori darajadagi sezuvchanlik xususiyatiga ega tog' ekosistemasiga ko'rsatdi. Orol dengizi ostini ochilishi va tabiiy o'simliklar qoplami maydonini qisqarishi lokal iqlimni ancha o'zgarishiga, kontenital va qurg'oqchilikga olib kelib keldi. Shamol tezligi o'sdi, cho'llanish jarayoni har tomonlama kuchaydi. Shamol tufayli ifloslanish salbiy effekt bermoqda.

Garchi yer sharining 3/4 qismi, ya'ni 71 foizi suv bilan qoplangan bo'lsa ham chuchuk suv, umumiy suv miqdorining 2 foizga yaqinini tashkil etadi. Suv bu yerdagi eng aziz ne'mat hisoblanib, tabiat boyliklari orasida alohida o'rin tutadi. Chunki suv, barcha tirik jonzorlar hayotining asosiy manbaidir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1992-yil Rio de Janeyro shahrida "Atrof-muhit va taraqqiyot" mavzusida bo'lib o'tgan konferensiyasida jahon jamoatchiligining e'tibori suv muammosiga jalb qilindi. Unda ichimlik suvidan tejamkorlik bilan va uni isrof qilmasdan foydalanish masalalarini yo'lga qo'yish yuzasidan takliflar qabul qilingan. Chunki, 6 milyard aholining 1,2 milyardi toza ichimlik suviga muhtoj, 2,3 milyard aholi esa sanitar talab darajasiga mutlaqo javob bermaydigan suvni ichishga majbur bo'lmoqda.

Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Janubiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarida suv y etishmasligi doimiy jarayonga aylangan. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda jahon aholisining har 10 tadan 4 tasi toza ichimlik suvi y etishmaydigan joylarda yashashga majbur bo'lib, bunday holat 2025-yilga kelib, har 10 odamdan 6 tasi yoki 5,5 milyard aholi toza ichimlik suv tanqisligiga uchrash ehtimoli bor.



Suv va yarim suvli ekosistemalar uchun suvning sho'rlanishini oshishi va agroximikatlar bilan ifloslanishi muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, irrigatsion sistemalarni rivojlanishi oqibatida tabiiy gidrologik sikllari o'zgarishini keng miqyosda o'sishi akvatik ekologik sharoitlarni jiddiy o'zgarishiga olib keldi, bu esa o'z navbatida turlar sonini kamayishi va arealini qisqarishi yoki ularni butunlay yo'qolishiga sabab bo'ldi. Baliqlarning ko'pgina ekzotik turlarini iqlimlashtirilishi ham ekologik balansni o'zgarishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasining yer osti suvlari umumiy suv resurslarining ajralmas qismi bo'lib, iqtisodiyotning rivojlanishida, shaharlar va qishloqlar aholisining xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti, sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarning asosiy suv ta'minoti manbasi hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, hukumat qarorlariga ko'ra, Qashqadaryo, Samarqand, Navoiy va Buxoro hokimliklariga Qashqadaryo va Zarafshon daryolarining qirg'oq bo'yi yerlarini belgilangan tartibda, yer egalari va yerdan foydalanuvchilardan olib, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining suv xo'jaligi tashkilotlariga berish, Surxondaryo, Andijon va Namangan viloyatlari hokimliklariga esa Surxondaryo, Norin va Qoradaryo daryolarining qirg'oq bo'yi yerlarini Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining o'rmon xo'jaligi tashkilotlariga yerlardan doimiy egalik qilish va foydalanish uchun davlat dalolatnomalarini berish ishlari amalga oshirilmoqda.

Respublika hududidagi 6 ta: Qashqadaryo, Zarafshon, Chirchiq, Surxondaryo, Qoradaryo va Norin kabi daryolarning suvni muhofaza qilish maydonlari jami 73,12 ming gektarni, qirg'oq bo'yi polosalari esa 9,85 ming gektarni tashkil etadi. Ushbu 6 ta daryoning suvni muhofaza qilish mintaqasida joylashgan 126 ta ekologik potensial xavfli ob'ektlar mazkur mintaqalardan chiqarildi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlashda avvalom bor suv resurslaridan, ayniqsa

aholi o'rtasida ichimlik suvidan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan tushintirishlar olib borishda keng jamoatchilikni jalb etish, targ'ibot va tashviqot ishlarini yanada jonlantirish lozim. Shuningdek, mintaqada mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'zaro hamkorlikdagi maqsadga yo'naltirilgan ekologik siyosat va ilmiy, huquqiy, moliyaviy hamda texnologik bazasini mukammal rivojlantirishlari zarur bo'ladi.

XVIII-XIX asrlarda texnik taraqqiyot tabiiy resurslardan, qazilma boyliklar, yer-suv resurslari, baliq zaxiralaridan foydalanish va yovvoyi hayvonlarni ko'plab ovlashning kuchayishiga imkon yaratdi. Sanoat ishlab chiqarishda avval bug' mashinalari, keyinchalik ichki yonuv dvigatellariga o'tilishi, shaharlar va sanoat markazlarining o'sishi ko'plab zararli chiqindilar miqdorining ortishiga sabab bo'ldi. Daryolardan foydalanish, suv xavzalari, atmosfera havosi va tuproqlarning sanoat chiqindilari va kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi sezila boshladi.

Yashash joylarining degradatsiyasi munosabati bilan qator umurtqali hayvonlarning yo'qolib ketish jarayoni va to'g'ridan-to'g'ri qirish natijalari ayniqsa yirik sutemizuvchilarda seziladi. hammadan ham areali va sonining kamayishi tuyoqli va yirtqich hayvonlar vakillariga tegishlidir. Yo'q bo'lib ketgan yirtqich hayvonlarga turon yo'lbarisi va gepard kiradi, butunlay yo'q bo'lib ketish arafasida turgan turlar – sirtlon, qoraquloq, qoplonlardir.

«Ishqorli» yomg'irlar o'simliklarga yomon ta'sir etadi. Daraxt barglarini muddatdan avval to'kib, o'rmonlarning batamom qurishiga sabab bo'ladi.

«Ishqorli» yomg'irlar ichimlik suvlarini ifloslaydi, tog' jinslari tarkibidan tarik organizmlar uchun zaharli simob, qo'rgoshin, kadmiy, rux va boshka metallarni siqib chiqaradi, baliq tanasida simob tuplanishini ortishiga ta'sir etadi. Shu

boisdan, inson salomatligi uchun ham xavf tug'dirmoqda. Hozirda faqatgina Yevropa hududining o'ziga yiliga 30 mln. t sulfat chiqindilari tashlanmoqda. Tabiatni ishqorlanishdan saqlash uchun atmosferaga chiqariladigan sulfat angidrit va azot sulfat miqdorini keskin kamaytirish lozim. Yoqilg'i energiyasini tejash, jarayonlarini takomillashtirish, atmosferaga chiqariladigan sulfat oksidni tutib qolish, avtomobillarda (azot oksid manbaidan biri) etilli benzindan foydalanishga barxam berish bilan «ishqorli» yomg'irlarni bartaraf etish mumkin.

Turkmanistondagi Qorasum kanali Amudaryodan har yili 10 km atrofida suv oladi. Kanal ishga tushgandan buyon undan sal kam 40 yil mobaynida cho'l hududlari tabiatida kuchli o'zgarishlar ro'y berdi, hatto ko'plab butunlay yangi tabiiy geografik majmualar hosil bo'lishiga sabab bo'ldi. Agar kanal uzunligini 1100 km dan ortiqdigi, yon atrofga ta'siri 1-30 km ekanligi yuzasidan tahsil qilinadigan bo'lsa, kanalning nafaqat ijobiy, balki mintaqaga uchun keltirayotgan jiddiy ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy salbiy ta'sirini ham payqash mumkin.

Atmosferani ifloslantiruvchi chiqindilar odatda ikki qismga bo'linadi: gazsimon va qattiq moddalar, shundan gazli moddalar butun chiqindilarning 90%, qattiq moddalar esa 10% ini tashkil etadi. Atmosferani ifloslantiruvchi manbalarni tabiiy va ishlab chiqarish-maishiy jarayonlar tashkil qiladi. Tabiiy manbalarga chang, chang-to'zon, vulqonlarning otilishi, koinot changlari va boshqalar xos. Tabiiy manbalardan keladigan ifloslantiruvchi moddalarning 3/4 foizi noorganik genezisga ega bo'lib, bular nurash mahsulotlari, tuproq donalari, tuz, mikroorganizmlardir. Tabiiy manbalardan atmosferaga qo'shilgan turli moddalar ma'lumotlarga qaraganda, har yili o'rtacha 700 mln.t. dan 1,5 mlrd.t. gacha dengiz tuzlari, 700 mln.t. ga yaqin tuproq changi, o'rmonlarning yonishi natijasida 360 mln.t. gacha turli aralashmalar atmosferaga qo'shiladi. Ularning jami o'rtacha 2,3

mlrd.t. aerzolni (havoda muallaq turuvchi qattiq yoki suyuq zarrachalar) tashkil qiladi.

Havoni ifloslashtirishda avtomobil transportining hissasi juda ham yuqori. Ichki yonish dvigatellari tashqariga chiqarib tashlagan chiqindilari tarkibida uglerod oksidi, azot qo'sh oksidi, uglevodorodlar, al'degidlar, quya, ben(a) preya va boshqa kimyoviy ashyolar mavjud bo'ladi. Olimlarning ta'kidlashicha, chiqindilar tarkibida qariyb 200 nomdagi komponentlar borligi aniqlangan. Hozirgi vaqtda dunyoda 500 mln.dan ziyod avtomobillar mavjud bo'lib, ularning 80 mln.tasi yuk, taxminan 1 mln.tasi avtobuslardan iborat. Yangi asr boshlarida avtomobillar soni 700-800 mln.ga qadar ortishi taxmin qilinmoqda. Mutaxasislarning aniqlashicha, bir yengil avtomobil yil davomida 4 t dan ko'proq kislorod yutib, havoga 800 kg uglerod oksidi, 40 kg atrofida azot oksidlari va deyarli 290 kg turli uglevodorodlar chiqaradi. Endilikda avtomobillarning miqdori ortib borayotganligi tufayli ularning atmosfera havosini ifloslantirishdagi ulushi yirik shaharlarda (AQSh da 75%) 60%, ba'zi yirik shaharlarda esa 70-90% ni tashkil qilmoqda. Avtomobillar asosan havoga uglerod oksidi (AQShda uning ulushi butun chiqindilarga nisbatan 70% ga teng), uglevodorodlar, azot ikki oksidi va boshqalarni chiqaradi.

O'zbekistonda moddiy ishlab chiqarishning keng miqyoslarda rivojlanishi Chirchiq, Ohangaron, Farg'ona vodiysida, Qizilqum past tokari etaklarida, Surxondaryo, Qashqadaryo, Zarafshon vohalarida bir necha sanoat va transport tugunlari, shaharlarni tarkib topishiga olib keldi. Sanoat ishlab chiqarishining beqiyos darajada taraqqiy qilishi atrof-muhitni, xususan atmosfera havosi ifloslanishga ta'sir etmoqda. Sanoat shaharlari ko'proq, tog' vodiylarida joylashganligi tufayli havoning o'z-o'zini tozalash xususiyati ancha chegaralangan, ya'ni tog' vodiylarida ifloslangan havoni tog' ztamlari tomon surib ketadi,

natijada bu hududlarda joylashgan vohalar va shaharlarda ifloslangan havoning turib qolishi seziladi. Bu borada Chirchiq, Toshkent, Yangiyul, Angren, Oxangaron, Olmaliq, Piskent, Buka shaharlari yunalishida havo ifloslanishining kuchayishi kuzatiladi. Bu borada Surxondaryo vodiysida havoni Tojikistonning Tursunzoda shahrida qurilgan ulkan alyuminiy korxonasining havoga ko'tarilgan chiqindilarni Uzun, Sariosiyo, Denov tumanlaridagi aholi yashash punktlarida atrof muhitning 80-yillarda kuchli darajada ifloslanishi tog'-vodiy shamollarining roliga juda ham xos misol bo'la oladi.

Atmosfera havosini ifloslantiruvchi ustuvor chiqindilar respublikada asosan uglerod oksidi (qariyb 50.4 %), oltinguturt (II) oksidi (15%), uchuvchi uglevodorodlar(15%), azot (II) oksidi(9%), qattiq aralashmalar(7%) tashkil qiladi. Umuman olganda mintaqada asosiy ifloslantiruvchi chiqindilar bo'yicha o'rtacha yillik ko'rsatkichlar xavfli kursatkichlardan pastroq.

## **II.2.NAVOIY VILOYATI HUDUDIDAGI EKOLOGIK DEGRADATSIYA JARAYONLARI**

Navoiy viloyati mamlakatimizning hududiy jihatdan eng yirik mintaqalaridan biri va bu jihatdan Qoraqalpog'iston Respublikasidan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Uning territoriyasi 111 ming kv km ga teng. Viloyat O'zbekiston hududining 30 foizidan ortig'rog'ini egallagan bo'lsada, suv ta'minotining g'oyatda kamligi tufayli, o'ziga tegishli er maydonining atigi 1,3 foizini sug'oradi va respublika qishloq xo'jalik yalpi mahsulotlarining 3,2 foizini ishlab chiqaradi. Viloyat respublikada sanoat yuksak darajada rivojlangan hududlardan biri bo'lib, Navoiy shahrida Markaziy Osiyoda eng yirik sanoat korxonalari: Navoiy Kon-metallurgiya kombinati, "Navoiyazot" ishlab chiqarish birlashmasi, "Qizil-qumsement" hissadorlik jamiyati, "Navoiy elektrokimyozavod" hissadorlik jamiyati va boshqa korxonalar joylashgan. Bu

korxonalar yiliga 560 ming tonnadan ziyod turli zaharli moddalarni atmosferaga chiqarib yuboradi va ular oqova suvlar orqali tuproqni ifloslantiradi.

Ayni paytda Navoiy viloyati sanoati Respublikamiz sanoatining asosiy qismini tashkil etadi. Viloyatda har yili oltin, paxta xom-ashyosi, bug`doy, qorako`l teri, go`sht, kimyoviy o`g`itlar, sement, uran, volfram, fosforid, suniy tola va boshqa xalq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi vaqtda birgina kon-metallurgiya kombinatining chiqindilari 280 gektar yerni band qilib, havo, tuproq va yer osti suvlarini sianid, sul`fat kislota, ammiak, nitrat va boshqa chiqindilar bilan muntazam ifloslantirmoqda. Mazkur korxona yiliga 268 ming tonnadan ortiq zaharli chiqindilarni chiqaradi.

Sanoat korxonalari viloyatdagi mavjud suvning 20 foizidan kamrog`ini ishlatsa ham ular joylarda asosiy ifloslantiruvchi manbalarni vujudga keltiradi. Masalan “Navoiyazot” ishlab chiqarish birlashmasida faoliyat jarayoni uchun yiliga  $32.917.500 \text{ m}^3$  suv sarflanib, bu aholisi 50 ming kishidan iborat bo`lgan zamonaviy shaharni ta`minlash uchun etarli bo`lardi. Mazkur suvning asosiy qismi birlashmaning chiqindilari bilan ifloslanib, oqovasi Zarafshon daryosiga kelib tushadi.

Sanoat korxonalarining oqova suvlari tarkibida og`ir metallar kationlari miqdori ruxsat etilgan me`yordan 50 barobar, neft mahsulotlarining qoldiqlari 200 barobar ko`p bo`lgan holatlar kuzatilgan.

Navoiy viloyatida uran-ruda konlari mavjud bo`lib, ulardagi rudalar tarkibida uran miqdori talaygina u radioaktivligi va radon ajralishi bilan aholi salomatligi uchun o`ta xavfli holatlarni to`g`dirishi mumkin. Sanoatda ishlab chiqariladigan uranning radioaktiv chiqindilari va tog` jinslari uyumlari radioaktivlikning tabiiy manbalaridir. Viloyatdagi radioaktiv qoldiqlar

saqlanadigan joy ham ekologik jihatdan “xavfli ifloslantirish o`chog`i” hisoblanadi.

“Navoiyelektrokimyo” hissadorlik jamiyatida tayyorlanadigan mineral o`g`itlar miqdori shahardagi boshqa sanoat korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmidan bir necha barobar kam bo`lgani uchun korxonaning atmosferaga chiqaradigan chiqindilari hajmi ham nisbatan oz, ammo bu chiqindilar tarkibida o`ta zaharli moddalar mavjud.

Navoiy shahri va uning atrofi atmosfera havosining ifloslanish darajasi umumiy ko`rsatkichlar bo`yicha xavfli hisoblanadi.

Uchquduq va Zarafshon shaharlarida atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy manbalar: kon-metallurgiya kombinatining sul`fat kislota ishlab chiqaruvchi bo`limlari, shahar avtotransporti, shaharni isituvchi bug` qozonlari, yoqilg`i chiqindilari va issiqlik elektr stansiyalardir. Ular havoni oltingugurt (IV)-oksid, isgazi va azot oksidlari bilan ifloslantiradi. Shuningdek, cho`l zonalarining o`ziga xos tabiati tufayli bu hududlarning havosi tarkibida chang zarrachalari miqdori har doim me`yoridan ancha ortiq bo`ladi. ( $0,116 \text{ mg/m}^3$ , 0,8 PDK).

Viloyat tumanlarining ayrim dahalarida chiqindi axlatlarni yig`ish va tashish tegishli darajada tashkil etilmaganligi natijasida ko`chalarda maishiy axlatlar to`planib qolib atrof muhitni va yaqin joylashgan suv manbalarini ifloslantiruvchi majmuaga aylanib bormoqda.

Tuproqqa ortiqcha ishlov berish sho`rlanishiga va mineral o`g`itlar, og`ir metallar bilan ifloslanishiga, tarkibidagi chirindilarning kamayishiga, erroziyaning avj olishiga va boshqa salbiy oqibatlariga olib keladi. Viloyatimizda yerning ishdan chiqishiga asosan sug`orish va zovur tizimining eskirishi, sug`orish texnikasi va texnologiyasining qoloqligi va suvdan foydalanishda isrofchilikka yo`l

qo'yilishi sabab bo'ladi, bu esa o'z navbatida yerning meliorativ holatining yomonlashuviga va tuproq tarkibida tuzning ko'payib ketishiga olib keladi. Hozirgi vaqtda viloyatimizning 45-55% maydonlarini sho'r bosgan.

NAVOIY TOG' METALLURGIYA KOMBINATI 1958 yilda tashkil topgan bo'lib, korxona respublika iqtisodiyotining eng asosiy mahsulotlaridan oltin,uran,volfram kabi nodir metallar va foydali qazilmalarni xom ashyo sifatida ishlab chiqaradi. Korxonada mavjud 348 er osti quduqlari ish faoliyati tekshuruvdan o'tkazildi. Navoiy mashinasozlik zavodida 6 dona PUMA-800 chang tozalash qurilmalari o'rnatildi. Natijada atmosfera havosiga tashlanadigan zararli moddalar miqdori 60 tonnaga kamaydi.Sarflangan mablag' 102 mln so'mni tashkil etdi. Atmosfera havosiga kar'ernlardan tashlanadigan changlar miqdori 1444 tonnaga kamaydi. Navoiy tog'-metallurgiya kombinati tomonidan yil davomida 410 ga texnologik jarayonlar natijasida buzilgan erlar rekul'tivasiya qilinib qayta foydalanishga topshirildi.

Sanoat korxonalarining oqova suvlari tarkibida og'ir metallar kationlari miqdori ruxsat etilgan me'yordan 50 barobar, neft mahsulotlarining qoldiqlari 200 barobar ko'p bo'lgan holatlar kuzatilgan.

Navoiy shahrining issiqlik elektr stansiyasi (GRES) va "Qizilqumsement" hissadorlik jamiyatining har biri yiliga 10 ming tonnadan ortiq chang va 30 ming tonnadan ziyod oltingugurt, azot oksidlari va boshqa zararli moddalarni atmosferaga muntazam chiqarib tashlamoqda.

Navoiy kon metallurgiya konbinati tomonidan ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari mamlakatimiz iqtisodiy o'sishida sezilarli iz qoldirmoqda. Hozirgi paytda mazkur sanoat korxonalari o'z mahsulotlarini Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlariga eksport qilishmoqda. Viloyatdagi sanoat ishlab chiqarilishi yuksak ilmiy texnikaviy asosda amalga oshirilmoqda. Viloyatda yer osti va yer usti



boyliklarining va boshqa foydali qazilmalarning 100 dan ortiq turi mavjud. Muhim kvars konlari, kimyo sanoatida keng foydalaniladigan bentonit tuproqlari, keramika, olovga bardoshli sanoat uchun yaroqli hisoblangan kaolinli xom-ashyolar bugungi kunda nafaqat mustaqil diyorimiz balki xorij davlatlariga eksport qilinadigan marmar va granit konlari, sanoatning turli ishlab chiqarishda ishlatiladigan vollostinit konlari, slans, fosforit, biryuza, tuz, ohaktosh, tabiiy pigmentlar va boshqa o`nlab turdagi zahiralarning mavjud.

“NAVOIYAZOT” OCHIQ HISSADORLIK JAMIYATI qurilishi 1961 yilda boshlandi va kombinat 1964 yilda ishga tushirildi. “Navoiyazot” OAJ tabiiy gaz, metan, havo va suvdan xom ashyo sifatida foydalanib, mineral o`g`itlardan ammiak selitrasi ishlab chiqariladi. Bugungi kunda kombinat mineral o`g`it ishlab chiqarish bo`yicha respublikada etuk kimyoviy korxonalar safidan o`rin olgan,

“Navoiyazot” OAJ har yili atmosferaga 12844,76 tonna har xil moddalarni chiqaradi. Bulardan, azot oksidlari - 619,36 tonna, akrilonitrit - 600 tonna, ammiyak – 44 tonna, asetilin – 3,5 tonna, selitra – 500 tonna va hokozolar. Korxonada chiqidilarni tashlash uchun 500 ta manbalar tashkil qilingan. Mazkur korxonaning 2010 yilda atmosfera havosiga chiqargan chiqindisi 6,1 ming tonna, 2011 yilda 2,93 ming tonnani tashkil etadi. Korxonada nisbatan eskirayotgan va ta`mirlalab jihozlar ishlatiladi.

“Navoiyazot” OAJ Sanitar kolektoriga tashlanadigan tashlanmalari doimiy nazorat qilib borildi. Yil mobaynida 12 marta namunalar olinib tahlil ishlari olib borildi. Natijada 1-tashlamada xlorid ionlari bo`yicha 1.3 marta, sul`fat ionlari bo`yicha 1.2 marta, shartli 3- tashlamada BXO dan keyin muallaq moddalar bo`yicha 1.22 marta belgilangan me`yordan yuqori holatlari qayd etildi.

“Navoiyazot” OAJda umumiy quvvati soatiga 100 dona bo’lgan lyuminisent lampalarini demirkurizasiyalash qurilmasi ishga tushirildi va atrof-muhitni simob bilan ifloslanishiga barham berildi.

“Navoiyazot” OAJning sanitar kollektoriga tashlanadigan 1- tashlamada minerallanish belgilangan meyorlardan 1,2 marta, xlorid ionlari – 3,8 marta marta yuqorilik holatlari qayd etildi, nitrit ionlarining miqdori 0,01 mg/l ni, ammoniy ionlarining miqdori belgilangan meyorlardan yuqori emasligi qayd etildi.

Navoiyazot ishlab chiqarish birlashmasi salmoqli № 67, 83 manbalaridan atmosfera havosiga tashlanadigan zaharli gazlar (azot oksidlari, uglerod oksidlari, ammiak) miqdoriga namunalar olindi. Natijada: № 67 manba ( 5-sex kuchsiz azot kislotasi ishlab chiqarish sexi 2-navbati) kollektoridan atmosfera havosiga tashlanadigan gazlar tarkibida azot oksidlarining miqdori 3,83- 27,88 g/s g/s ni tashkil etdi. (PDV-12,10 g/s) belgilangan meyorlardan 2,3 marta yuqorilik holatlari qayd etildi.

NAVOIY ISSIQLIK STANSIYASI. Navoiy issiqlik stansiyasining № 1,2,3,4,5 manbalari nazorat qilinib NO<sub>x</sub>, SO<sub>2</sub>, SO ga namunalar olinib analitik nazorat qilindi. № 1 manbada azot oksidlarining miqdori 2,22 – 5,0 g/s ni tashkil etdi. (PDV- 3,935 g/s) ni tashkil etib belgilangan meyorlardan 1,3 marta yuqori holatlar qayd etildi. Oltingugurt oksidlarining miqdori – 0,033 g/s PDV- 18,053 g/s. № 2 manbada azot oksidlarining miqdori – 10,40-81,81 g/s (PDV-21,38 g/s) ni tashkil etdi. Belgilangan meyorlardan 3,8 marta yuqorilik holatlari qayd etildi. Oltingugurt oksidlarining miqdori 0,086 g/s gacha bo’lgan (PDV – 52,603 g /s). SO borligi aniqlanmadi. №3 manbada NO<sub>x</sub> – azot oksidlarining miqdori 8,67- 22,7 g/s ni tashkil etgan. PDV – meyoriy miqdori - 13,7 g/sni tashkil etib belgilangan meyorlardan 1,7 marta yuqori holatlar qayd etildi. Oltingugurt oksidlarining miqdori 0,07 g/s gacha bo’ldi. PDV – 52,107 g/s.

№4 manbada NO<sub>x</sub> – azot oksidlarining 17,40 -149,4 g/s ni tashkil etgan. PDV – meyoriy miqdori -28,72 g/s. Meyoriy miqdordan 5,2 marta yuqori boʻlgan holatlar qayd etildi. Oltinugurt oksidlarining borligi aniqlanmadi. №5 manbada NO<sub>x</sub> – azot oksidlarining miqdori 61,27- 241,44 g/s ni tashkil etib 3,3 yuqori holatlar qayd etildi. PDV – meyoriy miqdori – 74,668 g/s. Oltinugurt oksidlarining miqdori – 0,06 – 12,40 g/s. PDV– 60,24 g/s.

Navoiyazot ishlab chiqarish birlashmasi salmoqli № 67, 83 manbalaridan atmosfera havosiga tashlanadigan zaharli gazlar (azot oksidlari, uglerod oksidlari, ammiak) miqdoriga namunalar olindi. Natijada: № 67 manba ( 5-sex kuchsiz azot kislotasi ishlab chiqarish sexi 2-navbati) kollektoridan atmosfera havosiga tashlanadigan gazlar tarkibida azot oksidlarining miqdori 3,83- 27,88 g/s g/s ni tashkil etdi. (PDV-12,10 g/s) belgilangan meyorlardan 2,3 marta yuqorilik holatlari qayd etildi.

“QIZILQUMSEMENT” HISSADORLIK JAMIYATI 1977-yilda tashkil qilingan boʻlib , uning asosiy ishlab chiqaradigan mahsuloti har-xil rangdagi sement hisoblanadi. Sement xalq xoʻjaligining yuksak darajada taraqqiy etishiga, shahar va qishloqlarning chiroy ochib yuksalishiga sabab boʻladigan mahsulot hisoblanadi. Birorta bunyodkorlik inshootlarini sementsiz tasavvur qilib boʻlmaydi. Korxonaning normal ishlashi uchun mintaqada barcha imkoniyatlar va etarli miqdorda xom ashyo zahiralar mavjud.

“Qizilqumsement” OAJ jamoasi oʻtgan davri ancha kengaytirildi va 6000 m.kv.marmar taxtalari ishlab chiqarish sexi ishga tushirildi, 150 m kub qora marmar qoplamlar ishlab chiqarish karʼeri ish boshladi va ishlab chiqariladigan sement turi koʻpaytirildi, rangli sement ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyildi.

“Qizilqumsement” OAJ ning №70, 71, 72 manbalaridan Atmosfera havosiga tashlanadigan noorganik chang, uglerod oksidi, oltinugurt oksidlari, azot

oksidlariga namunalar olinib tahlil qilindi. Natijada, №70 manbada noorganik chang miqdori qo'yidagicha bo'ldi.  $167-272 \text{ mg/m}^3$  yoki  $91,6-95,66 \text{ g/s}$  ni ( $\text{PDV}=114,9 \text{ g/s}$ ) ni tashkil etdi. Azot oksidlarining miqdori  $-21,9-25 \text{ mg/m}^3$  yoki  $5,41-7,7 \text{ g/s}$  ( $\text{PDV}=12,978 \text{ g/s}$ ), uglerod oksidlarining miqdori  $378 \text{ mg/m}^3$  yoki  $133 \text{ g/s}$  ( $\text{PDV}=185,6 \text{ g/s}$ ) ni tashkil etdi. Ayrim hollarda belgilangan me'yorlardan 2,4 marta yuqorilik holatlari qayd etilgan. Noorganik chang miqdori  $90-259 \text{ mg/m}^3$  yoki  $13,56-66,45 \text{ g/s}$  ( $\text{PDV}=96,485 \text{ g/s}$ ) ni tashkil etdi. 72-sonli manbada belgilangan me'yorlardan yuqori holatlar qayd qilinmadi. "Qizilqumsement" OAJ ning 72 manbasida 2011 yilda oldingi yillarga nisbatan atmosfera havosiga tashlanadigan gazlar miqdori 1,3 marta kamaytirilganligini ijobiy baholash mumkin. "Qizilqumsement" OAJning kuydirish pechlarini texnologik jarayonida hosil bo'ladigan gazlar miqdorini avtomatik kuzatish, yonish jarayonini optimal' rejimini ushlab turish, gaz yoqilg'isini ortiqcha sarflanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida 3ta aylanma kuydirish pechlariga gaz tarkibidagi kislorod, uglerod oksidi va uglerd 2 oksidlarini miqdorini ko'rsatuvchi Rossiyada ishlab chiqarilgan GIAM-14, GIAM-15 markali gazoanalizatorlar bilan jihozlandi.

NAVOIY ELEKTRO KIMYO ZAVODI 1981 yilda tashkil qilingan bo'lib, uning asosiy ishlab chiqaradigan mahsulotlari kimyoviy va mineral o'g'itlar bo'lib, bular ezofen, kotoran, treflan, fazalon va boshqalar hozirgi paytda fazalon, kotoran sexlari vaqtincha ishlamay turibdi. Zavodda 1990 yilda qattiq zaharli chiqindilarni ushlash uchun omborxona qurilib topshirilgan. Zavodning yillik chiqindisi 8,4 ming tonnani tashkil etadi. "Navoiyelektrokimyo" hissadorlik jamiyatida tayyorlanadigan mineral o'g'itlar miqdori shahardagi boshqa sanoat korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmidan bir necha barobar kam bo'lgani uchun korxonaning atmosferaga chiqaradigan chiqindilari hajmi ham nisbatan oz, ammo bu chiqindilar tarkibida o'ta zaharli moddalar mavjud.

Navoiy GRESi va “Qizilqumsement”ning har biri yiliga 10 ming tonnadan ortiq chang va 30 ming tonnadan ziyod oltingugurt, azot oksidlari va boshqa zararli moddalarni atmosferaga chiqarib tashlamoqda.

“Navoiyelektrokimyo” h.j.da tayyorlanadigan mineral o`g`itlar miqdori boshqa sanoat korxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmidan bir necha barobar kam bo`lgani uchun korxonaning atmosferaga chiqaradigan chiqindilari hajmi ham nisbatan oz, ammo bu chiqindilar tarkibida o`ta zaharli moddalar mavjuddir.

Bu korxonalar yiliga 560 ming tonnadan ziyod turli zaharli moddalarni atmosferaga chiqarib yuboradi va ular oqova suvlari suv manbalariga tushib suvni muntazam ifloslantirmoqda.

### **II.3. EKOLOGIK DEGRADATSIYA JARAYONLARINING INSON SALOMATLIGIGA VA ATROF MUHITGA TA’SIRI**

Tashqi muhit ifloslanishining inson organizmiga ta’siri muhitda uchraydigan moddalarning konsentratsiyasiga bog’liq bo’lib, aksariyat hollarda yuqori darajada sanoatlashgan hududlarni hisobga olmaganda, kimyoviy birikmalarning tashqi muhitdagi miqdori muayyan bir kasallikni vujudga keltira olmaydi, lekin aholining umumiy kasallanishi deb ataladigan patologik holatlarning shakllanishiga sabab bo’lishi mumkin. Aholining iqtisodiy ahvoli yaxshilanishi bilan bog’liq shakllanayotgan ijtimoiy muammolar, oziq-ovqat tarkibining o’zgarishi, harakat faolligining pasayishi (gipodinamiya) va ekologik vaziyatning yomonlashuvi aholi o’rtasida uchrayotgan kasalliklar tarkibining ham o’zgarishiga sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, bunday ekologik xavflarning oqibatini yumshatish, butunlay oldini olish ham mumkin. Buning uchun, fikrimizcha, eng

muhim chora-tadbirlardan biriga e'tiborni kuchaytirish darkor, har qanday mamlakatning kelajagi shu zaminda kamol topayotgan avlodlarning ham jismonan, ham ma'naviy jihatdan sog'lom bo'lishiga bog'liqdir. Salomatlik esa yashash tarzi bilan chambarchas bog'liq tushuncha. Shu bois, aholining, ayniqsa, yoshlarning ekologik tarbiyasini kuchaytirish, o'zi yashaydigan, o'qiydigan, ishlaydigan muhitga munosabatini ekologik nuqtai nazardan shakllantirish sog'lom turmush tarzini yaratishning muhim sharti ekanini anglatish jamiyatimizdagi ma'naviy tarbiyaning uzviy bo'lagiga aylanishi zarur.<sup>4</sup>

Atmosfera havosi tarkibida qo'rg'oshin, margimush, mis va boshqa og'ir metallarning qattiq, birikmalari, oltingugurt gazi, uglerod oksidi, ftor birikmasi, azot oksidi, amiyak, uglevodorodlar, boshqa gazsimon va suyuq, moddalar miqdori REM darajasidan oshib ketsa bunday havo tarik organizmga katta ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, oltingugurt (II) oksidi va uning boshqa birikmalari ham havoda 0,85 mg dan ziyod bo'lganda ko'zning shillik, pardasini va nafas olish yo'lini yallig'lantiradi; oltingugurt gazi REM 0,05 mg dan oshganda organizmning og'ir bronxit, gastrit, laringit bilan og'rishiga olib keladi, nafas olish yo'lida ilgari mavjud bo'lgan kasalliklarni qo'zgaydi, bosh miyaning ba'zi vazifalarini o'zgartiradi, gipoglikemiya va gipovitaminozlar paydo bo'la boshlaydi, bolalarning o'sishida orqada qolish yuz beradi, o'pkada yangi elementlarning vujudga kelishi kuzatiladi.

Uglerod oksidining REM 0,5 mg dan ortishi gemoglobin harakatini kuchaytiradi, to'qimalardan kislorodning yetishmasligiga olib keladi, asab va yurak-qon tomirlari tizimlarining betartib harakatini keltirib chiqaradi,

---

<sup>4</sup> O'KTAM OBLOQULOV,  
Ekoharakat faoli

aterosklerozning kelib chiqishiga sababchi bo'ladi. Ftor, ftorli vodorod birikmalari miqdori REM 0,005 mg dan ziyod bo'lsa, teri va ko'zning shilliq pardasi neskin yallig'lanadi, burundan qon keladi, tumov, yo'talish, ateroskleroz kuchayadi. Azot ikki oksidi miqdori REM 0,06 dan ortsa organizmda o'pka va nafas yo'llarini kuchli yallig'laydi, ularda shamollashning vujudga kelishiga ko'maklashadi, qon bosimi kamayadi.

O'zbekistonda boshqa davlatlar qatori atmosfera havosini muhofaza qilish ishlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan «Atmosfera havosini muhofaza qilish tug'risida»gi qonun asosida amalga oshiriladi, bu qonun O'ZR Oliy Majlisi tomonidan 1996-yil 27-dekabrda tasdiqlangan Atmosfera havosini muhofaza qilish qonuni ko'p omillarga bog'liq.

- 1) avtotransportdan chiqadigan zararli chiqindilarni imkoni boricha kamaytirish;
- 2) 2) sanoatga kam chiqitli va chiqindisiz texnologiyani joroy etish;
- 3) maishiy chiqindilarni yoqishga barham berish;

4) mineral xomashyolar qazib olinadigan konlarda va karerlarda turli gaz, chang va boshqalarni havoga chiqishni minimal miqdorigacha kamaytirish va boshqalar. Havoni eng ko'p avtotransport zaharlashi tufayli asosiy e'tiborni sanoat bilan birga transportning shu turiga qaratish maqsadga muvofiq. Avvalo har bir avtomobilni sog'lom tutish bilan birga unda foydalanilayotgan yoqilg'i turiga ahamiyat berish darkor. Amalda foydalanilayotgan etilli benzin tarkibida qo'rg'oshinning mavjudligi avtomobillarda neytralizatorlar-zararli moddalarni tutib qoluvchi moslamalarni o'rnatishga imkon bermaydi. Agar qo'rg'oshin aralashtirilmagan benzin yoqilg'isidan foydalanish yo'lga qo'yilsa tashqariga chiqarilayotgan chiqindilarning katta qismini tutib qolish imkoni tug'iladi.

Shvetsiyada tajriba tariqasida avtomobillarda o'rnatilgan neytralizator-katalik fil'trdan foydalanish natijasida havoga chiqarilayotgan uglerod oksidini 34 %, uglevodorodlarni 86 %,- azot oksidlarini 58 % ra kamaytirishga erishilgan.

Yer insonning bebaho boyligi, yer o'simliklar dunyosi bilan birgalikda insonni oziq-ovqat bilan ta'minlaydi, kiyintiradi, qurilish materiallari va tibbiy ashyolar bilan ta'minlaydi va b. Shuning uchun ona-yerni muhofaza qilish har bir kishining muqaddas burchidir. Yer kurrasining quruqlik maydoni (muzliklarni ham qo'shib xisoblaganda) 15 mlrd. ra ra teng, shundan muzliklar maydoni 1,7 mlrd. ra, yaylovlar maydoni 3 mlrd. ga, xaydalgan yerlar maydoni 1,5 mlrd. ga teng, qariyb 400 mln.ga yer suyuriladigan dehqonchilik bilan band. Lekin yer resurslari turli sabablarga ko'ra muomaladan ( har yili qariyb 15 mln. ga.) chiqib boradi, chunonchi, sanoat ob'ektlari va shaharlar qurilishi uchun tahminan 8 mln. ga, eroziya natijasida 3 mln. ga, inson tomonidan zaharlanishi natijasida 2- mln.ga yer, suv bosishi, sho'rlanish tufayli esa 2 mln. ga atrofida yerlar ishlab chiqarish muomalasidan chiqib bormoqda. Butun sivilizatsiya davrida insoniyat turli sabablarga ko'ra (eroziya, shurlanish, shaharlar ostida yo'llar qurilishi, suv omborlari va boshsalar) jami taxminan 2,5-3 mlrd. ga yer maydonidan ajraldi.

Tabiiy resurslar orasida biologik boyliklar alohida ahamiyatga ega. Chunki, ular tugallanmaydigan resurslar bo'lib mahsulotlarni cheksiz muddatda beradi. O'simlik va hayvonot olami bir-birlari bilan o'zaro bog'liq. Agar o'simlikning bir turi yo'qolsa hasharotlarning 10 dan to 30 turigacha qirilishi mumkinligi aniqlangan, yoki ba'zi hayvonlar shu joyni tark etishi mumkin. Shu jixatdan qaraganda o'simlik va hayvonot dunyosi barcha joylarda saqlanishi zarur. Yer kurrasida qariyb 1-1,5 mln. hayvon turlari yashaydi. Bu miqdor o'simlik turlardan uch marta ko'p. YUNESKO ma'lumotiga ko'ra, keyingi yuz yil mobaynida



insonning xo'jalik faoliyati 25 ming turdagi oliy o'simliklar va 1 ming turdagi umurtqali hayvonlarning qirilib ketish xavfini keltirib chiqaradi.

O'simliklarning inson hayotidagi ahamiyati nihoyatda katta. Ular atmosferada kislorod balansini tartibga solib turadi, davolovchi va sanitariya-gigiyenik xususiyatlarga ega. O'rmonlar havodan is gazini iste'mol qilib tirik organizm uchun naqadar zarur bo'lgan kislorodni fotosintez yo'li bilan yetkazib beradi. Aniqlanishicha, 1 ga maydondagi yaxshi holdagi daraxtzor bir yilda 4,6-6,5 t. is gazini yutib 3,5-5,0 t kislorod ishlab chiqaradi. Shuningdek, quruqdikdagi fitomassa is gazini ko'l, dengiz va okeanlardagi fitoplanktonga nisbatan ikki marta ko'p iste'mol qilar ekan. Sayyoraviy miqyosda kislorod balansini barqarorlashtirishda shimoliy yarim shardagi igna bargli va tropik hamda subtropiklarning abadiy yam-yashil bargli o'rmonlari eng ko'p ahamiyatga ega.

Respublika tabiiy sharoitlarining turli-tumanligi, uning biologik boyliklarining ham har xil bo'lishiga ta'sir etadi. Hozirda o'simliklarning 4168 turi mavjud bo'lib, ularning 577 turi dorivor hisoblanadi.

Cho'l mintaqasida o'rmonlarning ahamiyati nihoyatda ulug'vor. Qumli cho'lda qumlarning ko'chib yurishini to'xtatsa, sug'orma yerlarda tuproqni uchib ketishiga tug'onak bo'ladi, yaylovlarda buta va daraxtlarning mavjud bo'lishi qorako'l ko'ylari iste'mol qiladigan turli xil o't-o'lanlarning o'sishiga imkon beradi. Oq va qorasaksovul, cherkez, cholbon, qandim o'rmon hosil qiluvchi daraxt va butalar xisoblanadi. Ular zich o'sgan joylarda yaylovlar maxsuldorligi gektariga 2 s. dan kam bo'lmaydi, ba'zan 4-5 s. gacha ko'tariladi.

Tuqayzorlar yildan yilga kamayib bormoqda. 1978-yilda ularning maydoni 78 ming ga, 1983-yilda-34 ming ga, 1992-yilda-31 ming gektargacha cha kamaydi. Amudaryo del'tasida daraxtli-butali to'qaylarning maydoni cho'llashish

munosabati bilan, ayniqsa, juda tez qisqarmoqda. 60-yillarga qadar hududda tuqayzorlar maydoni 270 ming ga bo'lgan holda ularning maydoni hozirda 10-15 marta kamaydi. 70-80-yillarda paxta maydonlarini kengaytirish bahonasida daryolar o'zanlariga qadar yangi yerlar ochildi, shuning uchun ham ko'p tuqayzorlar ayni shu davrda butunlay yo'qoldi.

Ekovaziyat ba'zan bir omil yoki komponent bilan bog'liq holda yuzaga keladi. O'zbekistonda aksariyat katta hududlarda vaziyat suv resurslarining ifloslanishi tufayli xatarlidir. Daryo suvlarining ichimlik suvi sifatida ishlatib bo'lmasligi, ulardan sug'orishda foydalanganda tuproqda sho'rlanish hodisasining rivojlanishi, shuningdek, tuproqning turli chiqindilar bilan ifloslanishi vaziyatni jiddiylashtirmoqda. Daryoning sifatsiz suvini aholi tomonidan iste'mol qilinishi Amudaryo, Quyi Sirdaryo, Quyi Zarafshon, bo'yi Bashqa daryo va boshqa hududlarda ular orasida tufli kasalliklarning tarqalishiga ta'sir etmoqda. Inson hayotini turli ekologik xavflardan asrash keyingi vaqtlarda eng muhim masalalardan bo'lib qoldi. Ekologik xavf- hatarning sabablariga texnologik va ekologik krizislarni kiritish mumkin. Ekologik xavf iqtisodiyotning nazoratsiz rivojlanishi, texnologiya va texnikaning orqada qolishi, tabiiy va antropogen avariya va falokatlarning yuz berishi natijasida inson, o'simlik hamda hayvonot olami yashaydigan muhitning bo'zilish ehtimolligi, buning oqibatida tirik organizmlarning mavjud bo'lish sharoitlariga moslashishi buziladi.

Ekologik xavf-xatarning eng kuchli ob'ektlari AES, kimyo sanoati, neftni qayta ishlaydigan korxonalar, truboprovodlar hamda transport hisoblanadi. Bulardan tashqari texnologik chiqindilar havo, suv, tuproq, o'simlik va boshqa organizmlarni sekin-asta zaharlab kelmoqda, bular ma'lum vaqtdan so'ng to'satdan katta hududga kuchli ta'sir kilishi ham mumkin. Inson salomatligiga texnogen chiqindilarning faol tasiri to'g'risida 70 — yillarda bir qator olimlar ogohlantirgan

edilar. Masalan, yashash muhitida radiatsiya, kimyoviy birikmalarning ta'siri kabi mutagen omillarning keskin ko'payishi kuzatilsa, u holda odamning genetik axboroti bo'zilishi mumkin. Bu hodisa insonning genetik asosining bo'zilishi xavfidan darak beradi. Buning tasdigi sifatida keyingi 30 yil mobaynida rivojlangan mamlakatlarda nuqson bilan to'g'ilgan bolalar soni keskin ko'payganligini ko'rsatish mumkin. Rossiyaning Perm shahrida yod organik va ftororganik sintez ishlab chiqariladigan mintaqada 12-17 yoshdagi bolalarning 57%, qiz bolalarning 82%i qalqonsimon bezning giperplazi(to'qimalarda strukturali elementlar sonining ortishi), buyrak yuqorisining bo'zilishi (disfunksiya ) va boshqa kasalliklar bilan xastalangan.

Biosferaning asosiy qismlaridan biri hisoblangan tuproq insoniyat hayotida juda katta ahamiyatga egadir. Tuproq quyosh energiyasini ko'proq o'ziga singdirish qobiliyatiga ega bo'lib, o'simliklar uchun hayotbaxsh manba hisoblanadi. Tuproq tarkibida turli mikroelementlar, mikroorganizmlar, gel'mintlar, chirindilar va boshqa moddalar mavjud. Tuproq g'ovaklik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun, bir qator gidrogeologik vazifalarni ham bajaradi.

Hozirgi ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida kimyo sanoati mahsulotlari keng ko'lamda qo'llanilib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda ham ulardan foydalaniladi.

Biosidlarning tuproqda uzoq vaqt saqlanib qolishi tuproqning turiga ham bog'liq ekan. Tuproq gumus moddasiga va chirindiga boy bo'lsa, unda biosidlar uzoq saqlanishi mumkin. Quruq g'ovakli, yengil, qumli tuproqlardagi zaharli, kimyoviy moddalar anchagina oson parchalanishga moyil bo'ladi.

Tuproqni bulg'atishi mumkin bo'lgan biosidlarni, ularni zararlanish darajasiga qarab, uch guruhga ajratiladi.

1.Zaharlilik darajasi kuchli: gronozan, GXSG, geptaxlor tiotan, siram, metafos, sevin, linden, mis fosfidi, karbation, DNOK, TMTD, PXP PXLlar.

2.Zaharlilik darajasi o'rtacha:artain, simazin, PXF, 2,4-D, metilmerkaptos fos karbin, treflan, nitrofen, tiozin, margimush, IFK, DDVF, karbofos, sayfos, xlorofos, kuprozan, monouron, prometrin, fosfamid, fazalon piramin, TXA, trixlormetafos va ftalofoslardir.

3.Zaharliligi darajasi kuchsiz: xlor, IFK, efirsulfonat, orezin, metilnitrofos, semeron, antio, keltan, karatan, polikarbosin, dalapon, diuron, kuprosin, solan daktal, dixloretan, tedion, figon, ftalan, PXB va boshqalar.

Pestisidlar o'simliklarni zararkunanda va kasalliklardan saqlanish bilan birga, hosildorlikning oshishiga yordam beradi. Biroq keyingi vaqtlarda ular tuproqda va landshaftlarda to'planib,biosenozlarga va ular orqali hayvonot dunyosi hamda odamzotga ko'rsatadigan salbiy ta'siri ortib bormoqda. Biosidlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari orqali odam organizmiga tushib, unda to'planadi va organizmning normal hayot kechirishiga, shu jumladan nasliga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilmada. Biosidlarning uchdan bir qismi naslga radiatsiyadan kuchliroq kimyoviy-genetik ta'sir qilib, mutatsiyaga olib kelishi qayd qilingan.

Biosidlardan foydalanish jarayonida nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish tutib, mazkur biosidning xossalari,tabiati, ta'sirchanligi,tabiatga hamda tirik organizmlarda kelib chiqishi mumkin bo'lgan asoratlarini yaxshi bilmoq zarur. Qishloq xo'jaligida ishlatiladigan biosid namunalarining o'z o'rnida, me'yorida qo'llash katta ahamiyat kasb etadi.

## **II.4. MINTAQADA EKOLOGIK DEGRADATSIYANI OLDINI OLISH VA UNING MANBALARINI BARTARAF ETISH**

Qazilma boyliklar konlarini ishga tushirish, ulardan ma'danlarni qazib olish, transportda qarta ishlash fabrikalariga tashish, rudalarni boyitish va ulardan kerak bo'lgan maxsulotlarni ajratib olish jarayonlari murakkab texnologik tizimlardan iborat. Mazkur bir-birlari bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarda ma'danlar miqdor jihatidan kamayadi, ba'zan esa sifatini ham yuqotadi.

O'zbekistonda yiliga 200 mln. t. dan ziyod tog' jinslari qazib olinadi, chiqindi sifatida tashlangan jinslarning xajmi 150 mln. m<sup>3</sup> dan mo'lroq. Qon va shahtalar atrofiga chiqarib tashlanayotgan qoplama jinslar faqat Olmaliq, va Navoiy tog'-kon sanoati majmuida 20 ming ra maydonni egallaydi. Chiqindilarni to'planishi avvalo katta maydonda tuproq va yaylovlardan foydalanishni cheklaydi, hamda yer osti suvlarini ifloslaydi, chiqarib tashlanayotgan qoplama jinslarning aksariyati zaharli xususiyatga egaligi e'tiborga olinsa, u holda mahalliy aholiga ham zarar yetkazishi mumkin.

O'zbekiston mis, qo'rg'oshin, rux, volfram kabi rangli metallarga juda boy bo'lib, ular bilan birga 15 turdan ko'proq boshqa rangli metallar ham uchraydi. Masalan, oltin, kumush, kadmiy, indiy, tellur, selen, reniy, kobal't, nikel, osmiy va hokazolar. Qalmotsir koni noyob bo'lib, mis-molibden rudasi va ular bilan birga yuqorida nomlari ko'rsatilib o'tilgan rangli metallarning ko'pchiligi birga uchraydi. Ularning asosiy qismi Olmaliq, tog'-kon metallurgiya korxonasida ajratib olinmoqda. Unga yaqin bo'lgan Dalnoye konining ishga tushirilishi va yangi tog'-metallurgiya majmuasini qurib bitkazilgandan so'ng rangli metallarni majmuali ishlab chiqarish yanada ko'payadi. Huddi shunday konlar Jizzax viloyatidagi Uchquloq, Surxondaryodagi Xondiza konlarida ham mavjud. Ohangaron ko'mir konida ko'mirni qoplab turuvchi kaolindan to'liq,

foydalanilmaydi. To'g'rirog'i, mazkur konni ko'mir-kaolin koni deb atash mumkin. Kaolin zahirasi 400 mln. tonna bo'lib, lekin qazib olingan 6-8 mln. tonna kaolinning xomashyo sifatida atigi 5% i olinib, qolgan qismi ag'darmada to'planib borilmoqda. Hozir uning yig'ilgan qismi 60 mln.t. ga yetib qoldi. Kaolin (gilmoya) -qimmatbaho xomashyo, undan qog'oz, dorishunoslik, atir-o'pa va boshqa sanoat tarmoqlarida foydalanilishi mumkin, uning tarkibida ko'p miqdorda alyuminiy mavjud, binobarin, u alyuminiy ishlab chiqarishda asqotadi.

Buzilgan yerlarning mahsuldorligini qarta tiklash va ularning xo'jalik samaradorligini yana ko'tarish maqsadida rekul'tivatsiya ishlari amalga oshiriladi. Rekul'tivatsiya ikki bosqichda, ya'ni texnik va biologik bosqichlarda kechadi. Texnik bosqichda yerlar tekislanadi, rel'efning notekisligi foydalanish maqsadiga moslab o'zgartiriladi, tub tog' jinslari ustiga tuproq yotqiziladi. Terrikonlar, ag'darmalar usti tekislanadi, yonbag'irlari zarur qiyalikka keltiriladi. Shundan so'ng biologik rekul'tivatsiya bosqichida tuproqlarning unumdorligini oshirish bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi, deflyatsiya va sho'rlanish hodisalarining oldini olish bo'yicha ishlar bajariladi.

O'zbekistonda keyingi yillarda jami bo'lib 1,25 mlrd. m<sup>3</sup> qoplama jinslar, chiqindi omborlarida 1,3 mlrd. t rudalarni boyitishda vujudga kelgan chiqindilar to'plangan. Ular 30 ming ga maydonni egallagan. Vujudga kelgan bo'sh tog' jinslariga har yili o'rtacha 25 mln. m<sup>3</sup> qoplama jinslar, 42 mln. t rudalarni boyitishda vujudga kelgan chiqindilar, 300 ming t metallurgiya korxonalarining shlaklari qo'shilib boradi. Chiqindilarning bu tezlikda ko'payib borishi yaylovlar maydonining qiskarishiga, atrof-muhitning ifloslanishiga jiddiy ta'sir etadi.

Kimyo va neft kimyosi sanoatida chiqindilarni asosan mis va rux eritmalari oqavasi, amiyakli oqava suv, marganets shلامي (kukunsimon modda), fosfogips, lignin, neft quyqasi va boshqalar tashkil etadi. Shuningdek, mashinasozlik, issiklik

energitikasi, yengil va oziq-ovqat sanoatlari ishlab chiqarish jarayonida ko'p hajmda ikkilamchi chiqindilar vujudga keladi. Ularning bir qismi zaxarli bo'lib, yer usti suvlari, havoni ifloslashi mumkin.

Vujudga kelgan sanoat chiqindilarining to'planib borishi ekologik va iqtisodiy jihatdan butunlay zararli, ularni mineralogik va kimyoviy tarkiblariga ko'ra turli sohalarda foydalanishni amalga oshirish maqsadga muvofik. Qattiq tog' jinslarini radioaktivlik xususiyati bo'lmasa maydalab qurilish materiallari sifatida foydalanish ayni muddao. Ulardan sifatli shagal, qum, gil, qirrali gula tosh va boshqa foydali qurilishbop materiallarni tayyorlash imkoni bor. Tog' jinslari jarlik, pastkamlik va botiqlarni to'ldirishda asqotadi. Ba'zan qattiq, jinslar oxaktosh, angidridlar, gips, lyoss, gil, kaolin bo'r va boshqa foydali elementlardan iborat bo'lishi mumkin, bu holda ularni turli sohalarda ishlatishga imkon bo'ladi. Angren kunashir ko'mir kar'erida ko'mirga qadar qoplama jins sifatida kaolin qatlami mavjud bo'lib, hozirga qadar mazkur qatlam deyarli foydalanilmay pastkamliklar to'ldirib borildi. Kaolin qog'oz, atir-upa, dorishunoslik, xunarmandchilik(turli idish-tovoqlar yasash) sanoatlarida keng foydalaniladi. Hozirda ushbu boylik asosida Germaniya bilan birgalikda qo'shma korxona tashkil qilingan, yaqin vaqtdan boshlab bir necha mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lga quyiladi.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash endilikda birinchi darajali va kechiktirib bo'lmaydigan vazifaga aylandi. Chunki, ichimlik suvlarining ifloslanganligi, joylarda atmosfera havosini chiqindilar bilan jiddiy to'yinganligi, buning natijasida aholi orasida turli kasalliklar tarqalganligi, yerlarni sho'rlanib, yaylovlarning mahsuldorligini pasayib borayotganligi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga salbiy ta'sir etayotganligi, mamlakat miqyosida tub o'zgarishlarni amalga oshirish zarurligini o'qtiradi.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida, bir qator bir-birlari bilan bog'liq bo'lgan turli masalalarni amal qilish lozim bo'ladi. Birinchi galda ekologik (bioekologik, geosisteli, biosferali) monitoringni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega. O'zbekistonda bu turdagi monitoring hozirda turli muassasalar va tashkilotlar tomonidan amalga oshirib kelinmoqda, lekin ularning ko'lami va egallagan hududi hozirgi talabga mutlaqo javob bermaydi. Chunonchi, tuproqning sanoat va kimyoviy ashyolar bilan ifloslanishi (Respublika Bosh Gidromet xizmatiga yuklatilgan) faqat ayrim qishloq jamoalari hududi bo'yicha nazorat qilinadi. Bunda barcha viloyatlarning sug'oriladigan yerlari nazarda tutilmagan, hech bo'lmaganda har bir viloyat bo'yicha tanlab olingan testli jamoa xo'jaliklarini ma'lum uchastkalari nazarda tutilganda maqsadga muvofiq, bo'lar edi. Faqat shundagina respublika hududi bo'yicha sug'orma yerlarni texnogen ifloslanishi bo'yicha tegishli xulosa chiqarish mumkin bo'ladi. Huddi shunday ahvol suv havzalarining ifloslanishi, atmosfera havosining chiqindilar bilan to'yinishi va boshqa sohalarda ham mavjud, ularning belgilangan me'yorda bo'lishi tabiiy muhit bo'yicha zarur bo'lgan monitoring axborotlarini olish va mavjud ekologik vaziyat to'grisida aniq xulosa chiqarishga imkon beradi.

Respublika Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" (1997-y.) asarida ekologik xavfsizlik muammosi chuqur tahlil qilingan. Muallif respublika hududi uchun bir qator eng xavfli manbalarni ko'rsatib o'tadi. Chunonchi, Moylisuv ( Qirgiziston) daryosining qirgoqlari yoqasida 1944-yildan to 1964-yilgacha uran rudasini qayta ishlash chiqindilari ko'milgan. Hozirgi vaqtda qoldiqlar saqlanadigan 23 ta joy mavjud. Bu yerlarda seli tushadigan tog' konlarni mahkamlash va ko'chki xavfi bo'lgan joylardagi qiyaliklarni mustahkamligini ta'minlash lozim. Navoiy viloyatidagi uran qoldiqlari saqlanadigan joy ham ekologik jihatdan xavfli ifloslantirish o'chog'i hisoblanadi.



Yirik shaharlarda ko'kalamzor hududlar aholi jon boshiga kamida 30-50 kv. m. bo'lgani yetarli holat hisoblanib, to'rt tup daraxt 1 kishiga sutka davomida zarur kislorodni ishlab bersa, 1 gektar o'rmon yiliga o'rtacha 18 mln. m havoni tozalaydi. Ana shu 1 ga. o'rmon issiq davrda havo tarkibidagi 220-280 kg. karbonat angidridni o'zlashtiradi, yiliga 70 t changni yutadi, atmosferaga 180-220 kg. kislorod chiqaradi. Daraxtzor va ko'kalamzor xiyobonlar, jazirama kunlarda soya-salqin beradi, tuproqda nam saqlaydi. Shu tufayli shahar bog'larida yo'l va xiyobonlarga qaraganda harorat biroz salqin ( $2-4^0$ ) havo namligi esa yuqori (13-14%) bo'ladi. Xiyobonlardagi yashil o'tloqlarning har bir kvadrat metri soatiga 200 g suvni bug'latib havoni salqin bo'lishiga hissa qo'shadi.

Ekologik siyosat davlat miqyosidagi darajada amalga oshirilsa atrof-muhitni yaxshilashning belgilangan chora-tadbirlari samarali bo'ladi. O'zbekistonda bu masalaga mustaqillikka erishilgandan keyin alohida e'tibor berila boshlandi. Prezident I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» (1997) asarida ekologiya muammolari boshqa davlat ahamiyatiga ega bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy, tashqi siyosat tarkibida atroflicha tahlil qilinib, amalga oshiriladigan vazifalar aniq-ravshan belgilab berilgan. Asarda respublikada yaqin kelajakda tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilishning taktika va strategiyasi asoslangan.

“O'rta Osiyoning transchegaraviy ekologik muammolari: ularni hal etishda xalqaro huquq mexanizmlarini qo'llash” mavzuidagi Xalqaro konferensiya ishtirokchilari O'rta Osiyoning transchegaraviy suv oqimlaridan foydalanish muammolari, atrof muhitning transchegaraviy ifloslanishi va uning aholi genofondiga, mintaqa florasi va faunasiga salbiy ta'siri masalalarini atroflicha muhokama qilib, mintaqadagi ekologik vaziyatni yumshatish yuzasidan aniq xulosaga keldilar:

Birinchiidan, O'rta Osiyo davlatlari xavfsizligini ta'minlashda eng asosiy va o'tkir muammolardan biri tabiatga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lish tufayli atrof muhitda sodir bo'layotgan degradatsiya jarayonlari va iqlim o'zgarishi hisoblanadi. Shuningdek, bu borada usiz ham zaiflashib qolgan mintaqa ekologik holatining yanada murakkablashmasligi uchun transchegaraviy suv resurslaridan yanada oqilona foydalanish zarur.

Ikkinchiidan, so'nggi bir necha o'n yilliklar davomida suv resurslaridan nooqilona foydalanish oqibatida Amudaryo va Sirdaryoda tabiiy suv oqimlari me'yori buzildi. Natijada Orol dengizining qurishidek eng murakkab va global ekologik fojia sodir bo'ldi.

Uchinchiidan, transchegaraviy daryolarning yuqori oqimida joylashgan davlatlar tomonidan sobiq ittifoq paytida rejalashtirilgan ulkan to'g'onli yirik gidroinshootlar bunyod etish bo'yicha bundan 30-40 yil oldingi yirik loyihalarni amalga oshirishga intilish atrof muhitga o'nglab bo'lmas darajada zarar keltirishi mumkin. Shu munosabat bilan konferensiya ishtirokchilari ushbu daryolardagi suv oqimining har qanday darajada kamayishi mintaqaning juda katta qismida ekologik vaziyatning izdan chiqishiga sabab bo'lishi mumkinligini qayd etdilar. Bu esa o'z navbatida ekologik falokat chegarasini kengaytirib, qishloq xo'jaligini yuritish, aholi turmush kechirishi uchun yaroqsiz bo'lib qolgan sho'rlangan maydonlarning kengayishiga, o'simlik va hayvonot dunyosi turlarining keskin kamayishiga, Orolbo'yi bioxilma-xilligining yanada qisqarishiga olib keladi hamda aholi salomatligi va genofondiga jiddiy xavf tug'diradi.

To'rtinchiidan, O'rta Osiyoning transchegaraviy suv resurslarini samarali boshqarishga mintaqadagi asosiy suv oqimlari boshlanishida joylashgan ikki davlatning shu paytga qadar transchegaraviy suv oqimlari bo'yicha xalqaro konvensiyalarga qo'shilmaganligi to'siq bo'layotir.

Beshinchiidan, o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi 35 yil davomida mintaqadagi alyuminiy korxonasi tomonidan atrof muhitga zararli

sanoat tashlamalari chiqarilishi Surxondaryo viloyatining shimoliy tumanlari aholisi salomatligiga va genofondiga jiddiy zarar yetkazdi, o'simlik va hayvonot dunyosiga, yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari sifati va hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

O'zbekistonning bir qator yaylovlaridagi (Qoraqalpog'iston, Navoiy, Buxoro) aholi, xususan Orolbo'yidagi aholi, asosan chorvachilik bilan shug'ullanadi. Respublikada 4500 tacha cho'pon xo'jaliklari bor bo'lib, ular o'rtacha 5-6 kishidan iborat. Har bir xo'jalikda 400 tadan 1000 tagacha qo'y bor. Yiliga har bir xo'jalikka o'rtacha 3700 m<sup>3</sup> suv kerak. Suv esa quduqlardan tortib olinishi kerak.

Biogaz qurilmalarini joriy etish chorvachilik va parrandachilik fermalari, ularning atrofidagi ekologik muhitni yaxshilaydi.

Ekologik toza qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2005-yil 23-avgustdagi No 59-1 sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qishloq va suv xo'jaligi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash iste'mol mollari masalalari bo'yicha Axborot-tahliliy departamentining roziligi bilan "Eko-energiya" ilmiy-tadbiqiy Markazi faoliyat olib bormoqda. Ushbu Markaz faoliyatining asosiy maqsadlari:

-elektr va issiqlik ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan atrof-muhit ifloslanishining oldini olish masalalarini o'rganish, bu sohada qonuniy-me'yoriy va dasturiy hujjatlar tayyorlash;

-atrof-muhitni muhofaza qilish va qazib olinuvchi yoqilg'i manbalarini iqtisod qilish maqsadida qayta tiklanuvchi energiya manbalari resurslaridan foydalanish va amaliyotga tadbiq etish yo'llarini izlash;

-ekologik toza qayta tiklanuvchi energiya manbalarini tadqiq qilish va ulardan keng ko'lamda foydalanishni amalga oshirish.

O'zbekistonda ekologik siyosat yuqorida aytib o'tilganidek bir qator qabul qilingan qonunlar, «Yer to'g'risida»gi (20-iyun 1990-y.), «Qazilma boyliklar to'g'risida»gi (22-sentabr 1994-y. ), «Suv va suvdan foydalanish» (6-may 1993-y ), «O'simlik olamini muhofaza qilish va foydalanish» (26-dekabr 1997-y. ), «Hayvonot olamini muhofaza qilish va foydalanish» (26-dekabr 1997-y. ), «Alohida muhofaza qilinadigan hududlar to'g'risidagi (7-may 1993-y.), «Atmosfera havosini muhofaza qilish» .(27-dekabr 1996-y.), «Davlat kadastri to'g'risida»gi (29-avgust 2000-y.), «Ekologik ekspertiza to'grisida»gi (15-dekabr 2000-y. ) qonunlar, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan ko'plab qarorlar asosida amalga oshiriladi.

### **III.BOB.EKOLOGIK DEGRADATSIYANI Keltirib Chiqaruvchi KIMYOVIY OMILLAR.**

#### **III.1.QISHLOQ XOJALIGINI KIMYOLASHTIRISH JARAYONLARI**

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kimyolashtirishda ekologiyaning o'rini aniqlash, rivojlantirish jarayonlari orqali atrof muhitning nihoyat darajada ifloslashib, kimyoviy chiqindilarga boyib ketganligi, bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat,mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik,qo'l -qovushtirib o'tirish, o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir.Afsuski hali ko'plar bu muammoga beparvolik va mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lmoqdalar".

Sayyoramiz kelajagi, insoniyatning taqdiri hozirgi davrda ko'p jihatdan ekologik muammolar yechimiga bog'liq bo'lib qoldi. Ekologik muammolar keyingi o'n yilliklar davomida yana keskinlashib ketdi. Havoning ifloslanishi, ichimlik suvning o'ta taqchilligi, ona zaminning zaharlanishi, ekish va hosil olish mumkin bo'lgan unumdor yerlarning, yer osti va yer usti boyliklarining, o'simliklarning va hayvonlar nodir turlarining kamayib borayotganligi hamda atmosfera haroratining sezilarli darajada oshib borayotganligidan insoniyat behad azob chekmoqda.

Kimyo sanoati korxonalarida turli kimyoviy moddalar ya'ni, kislotalar, ishqorlar, tuzlar, mineral o'g'itlar, polimerlar, sintetik tolalar va boshqa mahsulot turlari ishlab chiqariladi. Kimyo sanoati ishlab chiqaradigan mahsulotiga, foydalanadigan xom ashyosiga, shuningdek, texnologik jarayonlariga qarab bir necha tarmoqqa bo'linadi. Kimyo sanoatining o'ziga xos xususiyati shundaki, shu sohaga taalluqli korxonalar bir-birlariga uzviy bog'liq holda faoliyat yuritadilar. Ularning ishlatadigan xom ashyolari ham ko'pincha mazkur korxonalar tomonidan

ishlatiladi. Bunda xom ashyodan kompleks foydalanish, yani bir korxona faoliyati natijasida hosil bo'lgan oraliq mahsulotdan boshqa korxona foydalanishi mumkin bo'ladi.

Kimyo sanoatining rivojlanishi bilan xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish ham sezilarli o'sdi. Bu o'z-o'zidan aholi turmush farovonligining yuksalishiga olib keldi, ammo masalaning boshqa bir jihati ham borki bu hammani tashvishga solmoqda. Kimyo sanoatining rivojlanishi, kimyoviy moddalardan keng foydalanish, sanoat chiqindilari, kimyoviy ishlab chiqarish chiqitlarining ko'payib ketishi tabiiy muhitning zaharlanish darajasining yuqori bo'lishiga olib keldi. Biroq, jamiyat taraqqiyotini, inson ehtiyojlari muammosini hal etishni kimyo fanisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, shuningdek, xo'jalik faoliyatida kimyoviy birikmalardan foydalanishdan voz kechib bo'lmaydi.

Demak, barcha diqqat e'tiborni ularni ishlab chiqarish me'yoriga, tartib qoidalariga va ulardan ekologik hamda ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda oqilona foydalanishimizga qaratishimiz zarur bo'ladi. Shuning uchun Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan zaharli kimyoviy moddalarning ruxsat etilgan me'yoriy miqdorlari ishlab chiqilgan. Zaharli kimyoviy moddalarni keng ko'lamda qo'llash gigiyena fani zimmasiga ko'p muammolarni yechish masalasini qo'yadi. Zaharli kimyoviy moddalar o'z nomi bilan zahardir. Mazkur moddalarning ta'siri faqatgina hayvonlar, hasharotlar yoki o'simliklar uchun xavfli bo'lmay, balki inson uchun ham zararlidir. Zaharli kimyoviy moddalar bilan tashqi muhitning ifloslanishi, o'z navbatida aholi sog'ligiga va barcha jonivorlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun ham zaharli kimyoviy moddalarni xalq xo'jaligida ko'plab ishlatishning zararli oqibatlarini oldini olish kerak, shuningdek, atmosfera havosini, suv va tuproqni korxonalarning chiqindilari, hamda oqava suvlaridan asrash yo'llarini o'ylab topish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Zaharli kimyoviy moddalarga sanitariya-gigiyena jihatidan baho berishga aloqador masalalar Respublika Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan boshqarib turiladi. Sog'liqni saqlash vazirligining talabiga ko'ra, kimyoviy zaharli moddalarning toksikologik ta'siri o'rganilmasdan, xorijdan olib kelinadigan kimyoviy moddalar har taraflama mukammal tekshirilmasdan ishlatishga ruxsat etilmaydi. Hayotga, qishloq xo'jaligiga tadbiiq etiladigan har bir kimyoviy modda uchun maxsus hujjat, uslubiy ko'rsatmalar, ulardan foydalanish yo'riqnomalari, me'yori, favqulodda zaharlanganda qo'llaniladigan birinchi tibbiy yordam haqidagi ma'lumotlar bo'lishi talab qilinadi. Zaharli kimyoviy moddalarni qishloq xo'jaligida qo'llash jarayonida aholi salomatligini o'ylab va muhofaza etishni nazarda tutib mazkur moddalarga nisbatan qo'yiladigan gigiyenik talablar asosida ishlab chiqiladi.

Zaharli kimyoviy moddalarni qo'llash jarayonida ularning tashqi muhit ob'yeklaridagi qoldiq miqdorlarining inson organizmiga boladigan ta'sirining oldini olish dolzarb muammo hisoblanadi. Bu borada sanitariya muassasalari olib boradigan sanitariya nazorat ishlari odamlarni zaharli kimyoviy moddalarning qoldiqlari ta'siridan muhofaza qilishga qaratilgan. Zaharli kimyoviy moddalar qo'llanilganda, ularning qoldiqlari atrof-muhit ob'yektlari bo'lmish mehnat qilish zonasidagi havoda, turar joylarning atmosfera havosida, suv va suv havzalarida, tuproqdagi miqdorini aniqlash, shu miqdorning ko'p yoki kamligini gigiyenik asosdan ishlab chiqilgan normalari bilan taqqoslash maqsadida gigiyena ilmi hayotda qo'llaniladigan barcha zaharli kimyoviy moddalar uchun ruxsat etiladigan miqdorini belgilaydi.

Zaharli kimyoviy moddalarning inson nasli-hasabiga salbiy ta'sir qilishi mumkinligi, genetik jihatdan olganda eng murakkab muammolardan hisoblanadi. Irsiy kasalliklarning keyingi vaqtda ko'payib barayotganligi kishini tashvishlantirmay qo'ymaydi. Ishlatilayotgan kimyoviy moddalarning allergen

tariqasida organizmga ta'sir qilishi borasidagi muammo ham hozirda yechilishi qiyin muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Kimyoviy moddalar organizmga juda oz miqdorda tushganda ham embrion hujayralariga salbiy ta'sir qiladi. Shularni e'tiborga olgan gigiyena xodimlari zararli moddalarning ruxsat etilgan me'yoriy miqdorini ishlab chiqdilar.

### **III.2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KIMYOVIY MODDALAR ISHLAB CHIQARISH VA UNDAN FOYDALANISH TARTIBI**

Yer resurslarini kimyolashtirish , ularni ekologik holati va muhofaza qilish masalalarini o'rganish yuzasidan chiqarilgan xulosalar shundan iboratki, Respublika mintaqasidagi yer maydonlarining ma'lum bir qismi,sanoat korxonalari chiqindilari ta'sirida erroziyaga chalinmoqda. Tuproqning strukturasi unda hayot kechiruvchi o'simlik, hayvon va boshqa mikroorganizmlarning o'sib rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Tuproqning tarkibidagi zarrachalar turli omillar ya'ni: gumus va kalsiy karbonat ta'sirida bir biriga yopishib qovushqoq, donador holatga o'tadi va dona-dona tuproq zarrachalari hosil bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni doimiy miqdorda ushlab qolish va uni oshirishning eng katta omili tuproqning tabiiy holatini, uning unumdorligi, organik va mineral moddalar miqdorini normal holatda ushlab turilishidir.

Mamlakatimiz hududi tuproqlariga sanoat korxonalaridan chiqayotgan chiqindilar tushub, uning strukturasi bo'zilib keladi. Tabiiy holatda tuproqning 0-20 smli yuza qatlami organik va mineral moddalarga boy bo'lib, tuproqda yashovchi mikro va makro organizmlarning asosiy qismi ana shu qatlamga to'g'ri kellar edi. Lekin sanoat chiqindilari bilan ifloslangan hudud tuproqlari o'rganilganda tuproqda yashovchi jonzorlar ko'proq 20-40 smli ichki qatlamda mavjud ekanligi kuzatildi. Bu holat tuproq organizmlarining sanoat chiqindilariga nisbatan chidamsiz ekanligi va organizmlar hayot faoliyatini davom



ettirish uchun tuproqning bir qatlamidan ikkinchi qatlamiga o'tayotganligini bildiradi.

Yer resurslarini muhofaza qilish, yerni tabiiy muhitini izdan chiqarayotgan sanoat chiqindilarini bir meyyorda ushlash tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitalari bilan birga, shu hududda istiqomat qilayotgan har bir insonning muqaddas burchidir.

#### **IV.BOB.EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI**

##### **IV.1.EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA OMILLARI**

Mustaqillik yillarida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim tizimida ham bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya tizimini zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish va ta'limning uzluksizligini ta'minlashning asosiy maqsadlari va shart-sharoitlari belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida (1997 yil 29 avgust) Prezident I. A. Karimov ta'kidlab o'tganidek, "Ta'limning yangi modeli, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. Biz o'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz".

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni amalga oshirish uchun ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning faol bilim olishlarini tashkil etish va ta'lim tizimining demokratik tamoyillariga tobora keng yo'l ochib berish lozim. Hozirgi kunda faqat pedagogning mehnati va mahoratiga asoslanib tashkil etilgan ta'lim yaxshi samara bermasligi hech kimga sir emas. Endi pedagogning asosiy vazifasi o'quvchilarga tayyor bilim berish emas, balki

bilimlarni mustaqil egallashlariga ko'maklashishdan iborat. Buning uchun esa o'quvchilarning o'z qobiliyati va imkoniyatlarini to'la-to'kis namoyon etishlari va butun kuch-g'ayratlarini bilim olishga sarflashlari uchun imkon beradigan darajada ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish zarur. An'anaviy tarzda o'qituvchining faolligi va barcha materialni tushuntirishga harakat qilishi bilan bog'liq bo'lgan darslarning o'rniga o'quvchining faolligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan noan'anaviy darslarni amalga oshirish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Endilikda o'qitish jarayonida o'quvchilarni zeriktirib qo'ymaydigan, fikrlashga, mustaqil ishlashga yo'naltiradigan har xil metodlar va o'qitish vositalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero o'quvchi an'anaviy o'qitish jarayonida ob'ekt hisoblansa, bugun u sub'ektga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida mamlakatimizdagi ekologik vaziyatni har tomonlama tahlil qilib shunday deb yozadi: «Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga mahkum qilish bilan barobardir». Haqiqatdan ham ekologik vaziyat va barqarorlikning bo'zilishi, atrof- muhit ifloslanishi ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlardan beri bir hudud doirasidan milliy va mintaqaviy chegaradan chiqib, butun insoniyatning umumbashariy muammosiga aylangan. Tabiat va inson o'rtasidagi muvozanatning bo'zilishi o'nlab bo'lmas ekologik falokatlarga olib keladi. Binobarin, mana shu muqaddas zamin, aziz Vatan barchamizniki, uning kelajagi uchun qaygurish har birimiz uchun ham qarz, ham farz.

Ekologiya bilan iqtisodiyot o'rtasida juda ham yaqinlik mavjud bo'lib, ular bir — birlarini taqozo etadilar. Ekologiya xo'jalikni yuritish uchun resurslar va qulay tabiiy sharoitlarni ta'minlab beradi, iqtisodiyot o'z navbatida mavjud boyliklar va sharoitlarni e'tiborga olgan holda iqtisodiyotni rivojlantirish yo'llarini ilmiy asoslangan holda taraqqiy qilishini ta'minlashi zarur. Bu o'zaro ta'sir doirasida iqtisodiyotga ko'p narsa bog'lik, ya'ni eng muhimi tabiatdan resurslarni me'yorga ehtiyojga qarab xalq xo'jalik muomalasiga kiritish, isrofgarchilikka chek quyish, atrof - muhitni chiqindilar bilan bulg'amaslik, resurslardan foydalanganlik uchun haq to'lash tartibini joroy etish va unga amal qilishni ta'minlashi maqsadga muvofiq. Resurslardan qanchalik oqilona foydalanilsa, atrof-muhitning shunchalik toza va ozoda bo'lishi uchun imkoniyat yaratiladi. Bundan iqtisodiyot va aholi salomatligi katta foyda ko'radi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishning asosiy maqsadi—insonning rivojlanishibilan musaffo atrof-muhitning uyg'unligini ta'minlashdan iborat. Tabiat davlat va ma'muriy chegaralarni tan olmaydi, hamda ekologik tanglikni bir yoki bir necha davlatlarni urinishi bilan oldini olib, bartaraf etib yoki bu sohada sezilarli natijalarga erishib bo'lmaydi. Bu o'z navbatida atrof-muhitni muhofaza qilishning prinsiplari mohiyatini va o'zgarib borish jarayonlarini sayyoramizning har bir a'zosi anglab yetishini va bunga munosib harakat qilishini talab etadi. Ekologik xavf-xatarni oldini olish, atrof-muhitni muhofaza qilish har birimizning burchimiz ekan ertaning egalari yosh avlodni yuksak ekologik madaniyat sohiblari qilib tarbiyalash o'ta muhimdir.

Mamlakatimizda uzoqni ko'zlab ishlab chiqilgan ekologik va ta'lim siyosatlarida ushbu masalaga keng e'tibor qaratilgan. Ya'ni umumta'lim maktablari dasturlaridan tabiat, ekologiya, madaniyat kabi alohida fanlar o'rin olganki, ular natijasi to'laroq o'quvchilarni tabiatni sevish, uning madanlarini isrof qilmaslik, atrof-muhitni iflos qilmaslik ruxida tarbiyalanib boriladi.

Aholini ekologik madaniyatini oshirish, atrof-muxitni muhofaza qilishga, tabiatni sevib, uning ne'matlaridan oqilona foydalanishga davat qilishda nafaqat umumta'lim maktablari, balki ommaviy axborot vositalari, turli tashkilot muassasalar, o'quv maskanlari, oliygohlar, mahalla-kuy, qolaversa yoshi ulug'larimizning o'rni katta.

Shuning uchun ham hozirda turli ommaviy axborot vositalarida tabiatni muhofaza qilish bo'yicha turli ko'rsatuvlar, roliklar, maqolalar ko'payib bormoqda. Shuni qayd qilish kerakki, unda yosh avlod faol ishtirok etib, bunga befarqmasligini ma'lum qilmoqda.

Mamlakatimda ekologik vaziyatni yaxshilash borasida juda ko'p ishlar bajarilmoqda. Shulardan biri muhtaram Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risidagi" qarori mamlakatimiz keng jamoatchiligi tomonidan mamnuniyat bilan kutib olindi. Bu borada O'zbekiston ekologik harakati Markaz Kengashi ijroiya qo'mitasi tomonidan alohida ish rejasi tuzilib chiqildi. Ushbu rejaga asosan mamlakatimizning barcha hududlarida atrof-muhit muhofazasi va sog'lom muhit yaratish orqali inson salomatligiga xizmat qiluvchi "Ekobog'lar" yaratish ko'zda tutilgan. Birgina aprel oyining ohiriga qadar yurtimizning turli go'shalarida jami 80 gektarga yaqin ekobog'lar yaratildi.<sup>5</sup>

Sanoat keng rivojlangan Viloyatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash va atrof-muhit ifloslanishini oldini olishda o'simlik va turli xil daraxtlar suv va havo kabi zarurligini inobatga olgan holda, mamlakatimizda ekologik musaffolikka erishish va xalqimiz dasturxonini to'kin qilish maqsadida viloyatimiz ekologik harakat vakillari va keng jamoatchilik vakillari, talaba yoshlar, maktab o'quvchilari, maxalla faollari bunlan savobli va xayrli ishni allaqon boshlab yuborganlar. Jumladan

---

<sup>5</sup> "Ekohayot" gazetasi, 2011 yil 18 son

viloyatimiz turli shahar va qishloqlarida “Mustaqillikning 22 yillik to’yiga atab,”Men ekkan niholim bilan birga ulg’ayaman” shiori ostida, 22 tupdan daraxt ko’chatlari o’tqazildi,shahrimiz ko’chalari obodonlashtirildi.

Bunday tadbirlarni o’tkazish natijasida yosh avlod tabiatni sevish,uni ardoqlash,asrab-avaylash ruhida tarbiyalanib boradi.

Sayyoramizda ekologik muammolar ko’lami kengayib,u yoki bu mintaqadagi ekologik xavf-xatar tobora globallashib borayotganligi butun dunyoda aholining ekologik bilimi va savodxonligini oshirishni davr talabiga aylantirdi.Jahon hamjamiyati 15-aprel sanasini **XALQARO EKOLOGIK BILIMLAR KUNI** deb e’lon qilganligi bu masalaga e’tibor kuchayib borayotganligidan yorqin dalolat.

O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish qo’mitasi va uning quyi bo’g’inlarida o’z faoliyatini ko’rsatib o’tadigan matbuot konferensiyalari muntazam o’tkaziladi, ekologiyaga oid nashrlar tanishtirilmoqda. 15-yanvarda Milliy Matbuot markazida Toshkent viloyati Tabiatni muhofaza qilish qo’mitasi tomonidan “Yuksak ekologik madaniyat – rivojlanish omili” mavzusida matbuot konferensiyasi bo’lib o’tdi.

Mamlakatimizda o’tqaziladigan “Siz ekologik qonunchilikni bilasizmi?” kabi turli mavzularda o’tqaziladigan ko’rik tanlovlar ham ekologik qonunchilik sohasidagi bilimlarni mustahkamlashda keng ahamiyat kasb etadi.

#### **IV.2.EKOLOGIK MADANIYAT – ONG - MAVKURA TUSHUNCHALARI**

Ekologik dunyoqarash deganda, avvalo tabiatga mehr bilan munosabat tushunilib, tabiatni muhofaza qilish haqidagi ilmiy-nazariy bilimlar majmuasi, jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy qarashlarni va oddiy kundalik tasavvurlarni o’z ichiga oladi.

Ekologik madaniyat, insoniyatning tarixiy rivojlanish jarayonida vujudga kelgan ilmiy-nazariy g'oyalarning muayyan majmuasi bo'lmasdan, jamiyatda yashayotgan shaxslarning ruhiy holatlarini, hissiyotlari kayfiyatlari va intilishlarini ham o'z ichiga oladi, hamda turli ijtimoiy ong shakllarining ekologiya nuqtayi nazaridan baholanishini mushtaraklashuvini ifodalaydi. Umumiy dunyoqarashning tarkibiy qismi bo'lgan ekologik madaniyat keng va tor ma'nolarda insoniyatning ijtimoiy-tarixiy amaliyoti jarayonida, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmuasidir.

Ekologik ong - insoniyatning atrof-muhitga munosabati, madaniyati, uning moddiy va ma'naviy madaniyati o'rtasidagi dialektik bog'lanish va aloqadorlik tarixiy taraqqiyotning harakatlanuvchi kuchlari ta'sirida shakllangandir. Umuman olganda moddiy va ma'naviy madaniyatlarning nisbatan mustaqil majmualari hamma tarixiy rivojlanish bosqichlarida tabiatni muhofaza qilish ehtiyoji ziddiyatli bo'lib kelgan.

Ekologik mavkura-ekologik ong va dunyoqarashlar orqali shakllangan inson tafakkurining mahsulidir. Ekologik vaziyatni xolisona baholash rejali boshqarish va oqilona tashkil qilish uchun birinchidan ekologik madaniyatning moddiy hamda ma'naviy yo'nalishlari ya'ni ekologik madaniyatni muayyan tarzda namoyan qiladigan faoliyat doiralari o'zaro bog'liq holda rivojlanishi zarur. Ikkinchidan ekologik vaziyat haqidagi ta'rifga ega bo'lishning o'zi "Tabiat jamiyat inson" munosabatlarini muqobillashtirish uchun yetarli emas. Uchinchidan tabiat muhofazasida amaliy va nazariy tadbirlarning muvaffaqiyatini belgilovchi eng muhim sabablar ekologik madaniyat majmuasi bo'lib u yuqorida qayd etilgan faoliyatlarning asosi hisoblanadi.

Moddiy ishlab chiqarish o'z mohiyatiga ko'ra ekologik madaniyatdir. Bu faoliyatda tabiiy boyliklarni oqilona iste'mol qilish madaniyatini rivojlantirish

oddiy jarayon emas, aksincha ommaning amaliy tashabbuskorligi g'oyaviy-siyosiy ongliigiga amaliy tashabbuskorligiga bog'liq. Bunda ekologik ta'lim-tarbiyaning vazifasi muayyan ekologik vaziyat har bir kishining tabiatiga shaxsiy munosabatiga muvofiq ekanligini anglatishga qaratilgan bo'lishi mumkin.


Tabiat qonunlarini, biosferaning ichki murakkab bog'lanishlarini, jamiyatning tabiatga ta'sir qilish istiqbollari anglamay turib tabiatni muhofaza qilishga oid zarur amaliy tadbirlarni, undan foydalanishning maqbul yo'llarini belgilab bo'lmaydi. Shu munosabat bilan ekologik madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyaning yangi sifat darajasiga ko'tarish, nazariy tadqiqotlarni amaliy tadbirlardan ildamroq rivojlantirishni taqozo etadi.

Tabiatni muhofaza qilish bilan moddiy ishlab chiqarishni doimiy kengaytirish o'rtasidagi ziddiyatning uzluksiz kuchayishi bir tomondan ma'lum darajada ekologik madaniyatsizlik oqibatida vujudga kelgan texnologik qoloqlikga borib taqaladi. Ikkinchi tomondan bir zumlik iqtisodiy foyda ketidan quvish tor doiradagi mahalliy manfaatlarini ustun qo'yish natijasida mavjud ekologik texnologiyani joriy qilmaslikning sababi ham ekologik madaniyatsizlik va ma'suliyatsizlikdir. Tabiat muhofazasiga doir yangi an'analarni turmushga keng joriy etish ekologik vaziyatning tarkibiy qismiga, amaliy yo'nalishiga aylanishi mumkin. Bunday an'analalar yoshlarning ekologik madaniyatini, vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishga nazariy bilimlarni, amaliy ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi. Shuning uchun ham turli qarorlarga tabiat, atrof-muhitni muhofaza qilishdagi sustkashliklar muvaffaqiyatlarimizni boy berib qo'yayotganligimiz haqli ravishda tashvishli hodisa sifatida e'tirof etilmoqda. Bu sohadagi ma'muriy buyruqbozlikning salbiy oqibatlari keskin tanqid mavzui bo'lib qolmoqda.

Odamzot ruhiyati o'zini o'rab turgan tabiatdan quvvat olib,uning ma'naviyati buyukdir.Butun borliq tabiat inqirozga yuz tutar ekan,inson ruhiyatidagi go'zal xususiyatlar ham yemirilib boradi.

Hozirgi kunda jamiyatdagi mavjud qiyinchiliklarning ayrim ildizlari aynan ekologik inqiroz bilan bog'lanib ketgan. Sof havo, tiniq suv, musaffo osmon, sog'lom zamin insonlarning sog'lom turmush tarzida katta ahamiyatga ega.

## EKOLOGIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH





Ekologik tafakkursiz yer sharida ilmiy-texnika rivojlanishini amalga oshirish kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Buning ma'nosi fan-texnikani rivojlantirmaslik yoki kosmosni egallamslik emas, balki bunday ishlarni amalga oshirishda birinchi navbatda insonlarda ekologik tafakkur juda rivojlangan bo'lishi kerak, inson bundan buyon ham hozirgi davrdagibidek xo'jasizlikka va atrof- muhit ahvoliga befarq bo'lmasligi kerak.

Tabiat manbalaridan noo'rin foydalanish, isrofgarchilik hisobiga ishlab chiqarishni ko'paytirish, qurollanishni rivojlantirish, boylik orttirish va shon-sharaf orqasidan quvish o'rniga undan nooqilona foydalanishni to'xtatish, juda bo'lmaganda bu jarayonni sekinlashtirish, insonlar uchun umumiy bo'lgan zaminning kelajagini o'ylash, uni doimo ko'z qorachig'idek asrash barchamizning burchimizdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy tarqqiyotning turli bosqichlarida insoniyat tabiiy atrof-muhitga turlicha munosabatda bo'lib kelgan. Dastlab inson paydo bo'lib tabiatga mutlaqo qaram bo'lgan davrda uning yashash uchun kurash bilan bog'liq iqtisodiy manfaatalri tabiatni muhofaza qilishga nisbatan birinchi o'rinda turgan. Keyinchalik ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurolarining takomillashuvi bilan insonning tabiat ustidan hukmronligi kuchayib borgan. Natijada "Jamiyat tabiat majmuasi o'rtasidagi mutonisiblik buzilib tabiatni muhofaza qilish orqali insonning o'zi muhofaza qilish zaruriyati vujudga keldi". Bu ayni zaruriyat o'z novbatida ayni shu masalani hal qilishning nazariy yo'nalishlarini mukammallashtirishni taqozo qildi.

Ijtimoiy ekologik ong insoniyatning ijtimoiy, tarixiy amaliyoti jarayonida atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ma'naviy qadriyatlar majmuasidir. O'ziga xos ekologik ongni kishilarning muayyan amaliy va nazariy

faoliyat maqsadini tabiatni muhofaza qilish manfaatlari bilan bog'lanishning inikosi deb qarash mumkin.

Tabiatni muhofaza qilish maqsadlaridan kelib chiqqan ehtiyojlar va ularni ifodalaydigan manfaatlar umumiy bo'lib, ularni asosiy va asosiy bo'lmagan turlarga ajratish nisbiydir. Asosiy va asosiy bo'lmagan ehtiyojlarning tabiati faoliyat doirasi tabiat muhofazasining mahalliy, milliy ehtiyojlari chuqurlashib jahon miqyosidagi jahon ehtiyojlarga aylanib ketishining ehtimolligi juda katta. Bunga ekologiya tarixidan istalgancha misollarni keltirish qiyin emas.

Atrof-muhitni muhofaza qilish ehtiyojlari mazmuniga ko'ra moddiy va ma'naviy ehtiyojlarga ajralgan. Moddiy ekologik ehtiyojlar tiklanmaydigan tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish, tiklanadigan tabiiy boyliklarning ekologik muvozanatini saqlash kabilarni boshqarish va tashkil qilishning asosidir.

Tabiiy boyliklarning bitmas – tuganmasligi haqidagi mavjud fikrlarning asossizligi nazariy hamda amaliy jihatdan isbotlanadi. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda iqtisodiy ehtiyojlarni ekologik moddiy ehtiyojlar doirasida chegaralash zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Insonning umumiy ehtiyojlarini, imkoniyatlarini amalga oshirish uchun qilgan harakatlar ongli faoliyatidir. Insoniyat ertaga ham faqat qorni to'q, usti but bo'lishi uchun tabiatni muhofaza qilishga intilmaydi. Zero tabiat insonning yashashi uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar manbai bo'lib qolmasdan, balki ma'naviy hayotning asosiga bog'liq holda mavjud bo'lgan. Ikkinchi tomondan tabiatni muhofaza qilishning ma'naviy ehtiyojlari iqtisodiy munosabatlarining ekologik jihatlarini rivojlantirib, boshqarib va muqabillashtirib turishning omili hisoblanadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki atrof-muhit muhofazasiga doir yetarli bilimga ega bo'lgan shaxsning ekologik sifatlarini tezda shakllantirib bo'lmaydi. Buning uchun ekologik bilimlar majmuasi bo'lgan madaniyat va

qadriyatlar jamiyatning umumiy manfaatlari bilan bog'lanib hayotiy ehtiyojlarga aylansagina kutilgan natija berishi mumkin. Aytaylik inson tabiatni muhofaza qilishning zarurligini anglaydi, lekin kundalik faoliyatida bunga amal qilmasligining, loqaydligining sababi ekologik bilimlarning e'tiqodga, axloqiy qoidaga aylanmaganligiga borib taqaladi. Shuning uchun faqat pand- nasihat bilan yosh avlodni tabiat muhofazasining faol kurashchilari hozirgi ekologik vaziyat talablariga javob beradigan shaxs qilib tarbiyalashda amaliy jihatdan juda qiyin. Shaxsning turli ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy munosabatlariga amaliy ekologik mazmunni singdirmasdan turib bu vazifani hal qilishi mumkin emas.

Ekologik savodxonlikka erishish yo'lida insonlarning ekologik bilim darajasini oshirish hamda mamlakat va regionlar bo'yicha atrof-muhitni ifloslantiruvchi manbalar to'g'risida ma'lumotlar berish ahamiyatga ega. Chunki bunday ma'lumotlarga ega bo'lish, umumiy ekologik holatni ko'z oldiga keltirish, tabiatga va insonlar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni cheklash va yo'qotish bo'yicha amaliy faoliyatda ishtirok etish uchun zarur.

Ekologik ta'lim insonga tabiat hodisalarini tushunib yetishga, yashash joyi, iste'mol qiladigan barcha ne'matlar, salomatlikka ta'sir qiluvchi omillar, dam olish uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoit, uning maqbul holatini belgilovchi me'yorlar bilan tanishtiradi. Ekologik omillarning zararli oqibatlarining oldini olish, ularni bartaraf qilish yo'llari va vositalarini o'rgatadi.

Ekologik ta'limni amalga oshirishda ta'lim-tarbiya birligi tamoyiliga tayanish muhimdir.

Bunda bizning fikrimizcha quyidagilarga e'tibor berish lozim bo'ladi:

- Ta'lim oluvchilarni huquqiy tarbiyalash.

- Ma'naviy axloqiy tarbiyaning mohiyati va shaxsni kamolga yetkazishdagi o'rni.
- Ta'lim oluvchilarning sog'lom hayot tarzini rivolantirish usullari.
- Ta'lim oluvchilarda vatanparvarlik, milliy g'urur va o'z-o'zini anglash, o'z xalqining tarixiga va madaniyatiga, milliy an'alariga hurmat, bilim va haqiqatga intilish, mehnatsevarlik, tadbirkorlik, qonunga bo'ysunish hissiyotlarini shakllantirish.
- O'zbekistonning kelajagi buyukligiga ishonch va uni qurishga yo'naltirilgan fuqaroviy va ijodiy faoliyatni shakllantirish kabi ko'pgina tamoyillarga asosiy e'tiborni qaratish lozim bo'ladi.

Ekologik ta'lim - tarbiyani oila, ta'lim tizimi va jamoa birligida amalga oshirish yaxshi natija beradi. U o'quv va muomala, madaniyat, axloq-odob, ma'naviyat, shaxsiy hayotida mazmunli namuna mahsulidir.

Ekologik ta'lim bizning respublikamizda ikki yo'nalishda olib boriladi.

Birinchi yo'nalish - har bir o'quv muassasasida ekologiya kursini o'qitish orqali umumiy ekologik ta'lim berishdir. Bundan tashqari, ekologiya yo'nalishidagi gimnaziyalar, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ham ekologik to'garaklar ishlab turibdi. Shunga qaramasdan hozirgi kunda ekologiyani o'qitishni mantiqiy ta'limning uzluksizligini ta'minlovchi bir tizimga solish, yangi namunaviy o'quv dasturlari va o'quv rejalari ishlab chiqish hamda adabiyotlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi yo'nalish - mutaxassis ekologlar tayyorlash. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha bir necha oliy o'quv yurtlarida «Atrof-muhitni muhofaza qilish» yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar va magistrilar tayyorlashga

kirishilgan. Bundan ko'zda tutilgan maqsad atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlash va bu sohadagi mutaxassis kadrlar etishmovchiligiga barham berishdir.

Xullas, ekologik ta'lim va tarbiyani takomillashtirish bo'yicha quyidagi mulohazalarni aytish mumkin: Butun dunyo bo'yicha, jumladan, mamlakatimiz hududida ekologik holatni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun birinchi navbatda aholining ekologik bilimini oshirish lozim. Buning uchun nafaqat umumta'lim maktablarida, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarining o'quv dasturlariga ekologiya fanini kiritish, balki barcha ishlab chiqarish korxonalari, muassasa va tashkilot rahbarlarining ham bu sohadagi malakalarini oshirish zarur.

## XULOSA

O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish» qonunini belgilab berdi. Mazkur qonunga muvofiq respublikada tabiatni muhofaza qilishga taalluqli huquqiy munosabatlarni tartibga solish Oliy Majlisning zimmasiga yuklatilgan. Bularga tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat ekologik siyosatini belgilash, davlat tabiatni muhofaza qilish dasturlarini tasdiqlash, shu sohaga oid respublika qonun hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish, tabiatni muhofaza qilishga taalluqli qonunlar ijrosini nazorat qilish va muvofiqlashtirib borish va boshqa vazifalar kiradi.

Tabiatni muhofaza qilish ishlariga umumiy rahbarlik Vazirlar Mahkamasiga yuklatilgan, Qonunning 8-moddasida «Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning davlat boshqaruvi tizimi» quyidagicha belgilangan: «Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishning davlat boshqaruvini O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, davlat boshqaruvi mahalliy idoralari amalga oshiradilar». Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi Oliy Majlisga bo'ysunadi hamda ushbu sohadagi davlat nazoratini amalga oshiradi. Qo'mitaning o'z tarkibiy doirasida qabul qilgan qarorlari davlat idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolar uchun ham tegishlidir.

«Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunda ushbu, sohadagi aholining huquq va majburiyatlari, atrof-muhit sifatini- me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solish, ekologik nazorat, ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlik va boshqa

xususiyatlar belgilab berilgan. Qonunda atrof-muhit monitoringi davlat ekologik muhit holatini kuzatib borish- xizmatiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlarida birmuncha qattiqroq talablar belgilangan hollar bundan mustasno. Ifloslangan atmosfera havosi, suv havzalari, ko'chib yuruvchi mikroblar va hayvonlar davlat chegarasini bilmaydi. Bu hol birgina davlatni emas, balki barcha davlatlarning o'zaro va xalqaro hamkorlikda bo'lishini talab etadi. Shundagina tabiatni muhofaza qilish ishi dunyo xalqlari manfaatlariga qaratilgan bo'ladi. Dunyodagi barcha mamlakatlarning hamkorlikda faoliyat yuritishi talab etiladi, bu o'rinda O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashining tabiatni muhofaza qilish bo'yicha tuzgan dasturi muhimdir. Unga ko'ra tabiatni muhofaza qilishda mamlakatlar birgalikda quyidagi muammolarga e'tibor berishlari talab etiladi:

- Atrof-muhitni muhofaza qilishning aniq faoliyatga rejalashtirilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy tomonlarini izlab topish;
- Tabiatni muhofaza qilishning gigiyenik normalarini ishlab chiqish;
- Atmosferani turli sanoat va maishiy chiqindilar, zararli moddalar bilan ifloslanishdan saqlash;
- Suvni ifloslanishdan saqlash;
- Maishiy- kommunal, transport, qishloq xo'jaligi chiqindilarini va boshqalarni zararsizlantirish va tashlab yuborish masalasi;
- Yer osti boyliklaridan oqilona foydalangan holda atrof-muhitning musaffoligini buzmaslik;
- Ekosistema va landshaftlarni muhofaza qilish masalasi;
- Shahar va shahar atrofi zonasini rejalashtirish va aholini joylashtirishda tabiat muhofazasi hamda yon- atrof muhitini sog'lomlashtirish masalasi;
- Shovqin va turli tebranishlarning oldini olish masalasi;

Dasturda yana bir qancha muammolar o'z aksini topgan. Endi gap ana shu muammolarni izchillik bilan hal qilishga bog'lik bo'lib qolmoqda. Tabiatni muhofaza qilishda hamma mamlakatlar birdek ma'sul bo'lib, birgalikda hamjihatlikda faoliyat yuritilsa, ekologik barqarorlikni shu bugungi holatini saqlab qolishga erishish mumkin bo'ladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ekologik siyosatning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55 moddasida belgilab berilganidek, "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boyliklardir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat himoyasidadir.".

BMT Bosh Assambleyasining 48 sessiyasida (1993 yil 28 sentabr) Prezidentimiz Islom Karimov dunyo xalqlari e'tiborini Orol muammosiga qaratdi. "Keyingi yillarda Orolning hajmi uch baravarga qisqarib, maydoni ikki baravar kamaydi. Qirg'oq 80 kmga chekinib, suvdagi tuzlar miqdori to'rt marta oshdi, 2 million gektar yerni qum bosdi.

Bugungi kunda Orolni qutqarish, Orolbo'yidagi ekologik muhitni sog'lomlashtirish va mintaqamizdagi ekologik muvozanatni saqlab qolish kabi ekologik muammolar bilan shug'ullanish maqsadida ish boshlandi. Yurti obod etish, kucha va hovlilarni ozoda saqlash, tabiatga yuksak mehr va ehtirom ko'rsatish xalqimizning eng azaliy odatlaridan biridir.

"Tabiatni muhofaza qilish haqidagi "Qonunning 4 moddasida quyidagilarga amal qilish ko'rsatilgan.

-Insonning yashash muhiti bo'lgan biosfera va ekologik tizimlar barqarorligini saqlab qolish, odamlarning ekologik jihatdan xavfsizligi, inson va kelgusi avlodlar genetik fondi xavfsizligi haqida g'amxurlik qilish;



-Fuqarolarning hayot uchun qulay muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash, barcha turdagi ta'lim muassasalarida ekologiya fanining majburiy o'qitilishi;

-Jamiyatning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini ilmiy asoslangan holda uyg'unlashtirish;

-Tabiatdan maxsus foydalangan holatga haq to'lash;

-Ekologiya ekspertizasi o'tkazishning majburiyligi;

-Tabiiy resurslarni tiklash zarurligi, atrof tabiiy muhit va inson salomatligi uchun zararli, tiklab bo'lmas oqibatlarga yo'l qo'ymaslik;

-Tabiatni muhofaza qilish masalalarida oshkoralik;

-Tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy, regional va xalqaro manfaatlarini uyg'unlashtirish;

-Tabiatni muhofaza qilish qonunlarini buzganlik uchun javobgar bo'lish va hakoza.

Hozirgi kunda Respublikada qishloq, o'rmon va boshqa xo'jalik tarmoqlaridagi tabiiy jarayonlarning keskin buzilishiga olib keladigan barcha zaharli kimyoviy moddalarni qo'llash ustidan qattiq nazorat o'rnatildi. Havo va suv muhitini insonning hayot faoliyati uchun zararli yoki salbiy ta'sir etadigan moddalar bilan ifloslantirishni to'xtatish chora tadbirlari ko'rilmogda.

-1993 yilda BMT va Jahon banki mutasaddilari hamkorligida Davlatlararo Kengash va Orolni qutqarish xalqaro fondi tashkil etildi.

-1994 yilda Nukusda mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning 3-5 yillik aniq harakatlar dasturi tasdiqlandi.

-1994 yil martda Turkmanistonda Orolbo'yini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash to'g'risida to'xtamga kelindi.

-1995 yil Nukusda xalqaro tashkilotlarning ekologik barqarorlikni saqlashga qaratilgan uchrashuvi bo'ldi.

-1997 yilda Toshkentda "Orol halokati XX asrning sayyoraviy fojiasi" mavzuida xalqaro uchrashuv bo'lib o'tdi.

Hozirgi vaqtda ekologik muammolarni bartaraf qilish bilan BMT, YUNESKO, YOHXK, Jahon banki, Yevropa ittifoqi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, xalqaro banklar, AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Misr, Fransiya kabi bir qancha xorijiy davlatlar ishtirok etmoqdalar.

O'zbekistonda davlat mustaqilligining birinchi kunlaridan boshlab, ekologiya, atrof muhit va atmosfera havosi musaffoligini ta'minlash, fuqarolar sog'ligini muhofaza qilish masalalariga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan ekologik siyosatning huquqiy asoslari asosiy qonunlarimizda belgilab qo'yilgan. Respublikamizda "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida", "Yer osti boyliklari to'g'risida", "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida", "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "Veterinariya to'g'risida", "Urug'chilik to'g'risida", "Seleksiya turlari to'g'risida", "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida" va boshqa bir qancha qonunlar qabul qilingan.

Respublikamizda aholining o'sish sur'ati nisbatan yuqori bo'lib, hozirda aholi soni 28 mln dan oshgan. Aholi qancha ko'paysa, yangi yerlarni o'zlashtirish zarurati ham ortib boraveradi. Ayniqsa, aholini toza ichimlik suvi, oziq – ovqat, turar joy, kiyim kechak bilan ta'minlash maqsadida tabiiy yerlarning

o`zlashtirilishi yil sayin ortib bormoqda. Natijada yer yuzasida jahon ahamiyatiga molik bo`lgan qo`riqxonalar, tabiiy landshaftlar qisqarib, hayvon va parrandalarning yuzlab noyob turlari tugab, cho`llar qamishzorlar va to`qaylarning keskin kamayib ketishiga olib kelmoqda. Bunday ekologik vaziyat nainki hayvonot va o`simliklar dunyosiga, shular qatorida insoniyatga ham salbiy ta`sir ko`rsatadi. Tabiiy boyliklardan rejasiz, tejamasdan foydalanish tabiiy muhitning izdan chiqishiga ekologik vaziyatning yomonlashuviga olib kelmoqda.

Ayni vaqtda tabiiy muhitning yomonlashuvi bilan birga, tabiiy suv manbalarining qurishi, suv tarkibining buzilishi, atmosfera havosining ifloslanishi, tuproqning nurashi, sho`rlanishi va boshqa hodisalar ro`y bermoqda.

Har bir davlatning taraqqiyoti, rivoji uning geografik joylashuvi, tabiiy boyliklariga ko`p jihatdan bog`liq bo`ladi. Respublikamizning geografik joylashuvi, tabiiy yer osti va yer usti boyliklari havas qilsa arzigulik darajada bo`lib, yurtimiz kelajagi, shu yurtda istiqomat qiladigan insonlar taqdiri hozirgi vaqtda ko`p jihatdan ekologik muammolar yechimiga bo`g`liq bo`lib qolmoqda.

Insoniyat tabiatning eng buyuk, aqlli, ongli vakili sifatida o`zi yashab turgan muhitning har tomonlama musafo va beg`uborligi uchun mas`uldir. Ekologik muammolar chegara bilmasligi, dunyoning qaysidir nuqtasida ekologik muvozanatning buzilishi boshqa bir hududda o`nglab bo`lmas ekologik talofatlarga olib keladi. Demak, yoshlarni tarbiyalashda ekologik ta`lim - tarbiya jarayoniga alohida e`tibor berishimiz, ular ongida mustahkam ekologik madaniyatni shakllantirishimiz- **KELAJAGI BUYUK YURT, OZOD VA OBOD VATAN, ERKIN VA FAROVON HAYOTNI** bunyod etishda hech ham kechiktirib bo`lmaydigan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, ma'ruzalari, qarorlari, farmon va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari hamda boshka vakolatli organlar bilan kelishilgan va qabul qilingan qarorlari,yetakchi ekolog olimlar,"Ekoharakat" vakillari va tajribali mutaxassislarning fikr-muloxazalari,mavzuga aloqador ilmiy-amaliy konferensiya materiallari,ommaviy axborot vositalari va internet ma'lumotlari.
- 2.«Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonun,27.12. 1996 y.256-268 bet.
- 3.Birlashgan Millatlar Tashkiloti.Asosiy omillar,T,2001 yil,224-247 betlar.
- 4.“BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun, Xalqaro Ona Yer kuni munosabati bilan 2010-y 22-aprelda yo'llagan maktubi.
- 5.Davlat kadastri to'g'risida»gi Qonun, 39-avgust 2000-y.
6. «Ep to'g'risida»gi Qonun,20-iyun 1990-y.
- 7.«Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi Qonun,15-dekabr 2000-y.
- 8.Ekologik nashriyot kompaniyasi. Qonun,—T.: 2006-y.
- 9.«O'simlik olamini muhofaza qilish va foydalanish to'g'risida» gi 26-dekabr 1997-y. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.359-370 bet.
10. “O'zbekiston Respublikasi atrof-muhit gigiyenasi bo'yicha milliy harakat rejasi”, Toshkent sh.-1999
- 11.«Qazilma boyliklar to'g'risida»gi Qonun, 22-sentabr 1994-y.
12. «Suv va suvdan foydalanish» Qonun, 6-may 1993-y. 211-255 bet
- 13.Turdiqulov E., Turdiqulov U. Markaziy Osiyoda ekologik ta'lim taraqqiyoti. – T.: Fan, 2005.
14. A.Nurmuhammedov “Atrof-muhit muhofazasi” Tafakkur-2009-y
- 15.«Hayvonot olamini muhofaza qilish va foydalanish to'g'risida»gi 26-dekabr 1997-y.342-358 bet.

16. I. Hamdamov va b. “Ekologiya” Toshkent-2009-y.
17. I.Xolliyev A.Ikromov, “Ekologiya” Toshkent-tolqin-2004-y.
18. “Ekohayot” gazetasi, 2011-yil 18-va boshqa sonlari.
19. G.D. Shamsiddinova, D.A. Karimova “Gidroekologiya”, Toshkent-2009-y. 208 bet.
20. G.D. Shamsidinova, D.A. Karimova “Kimyoviy ekologiya”, Toshkent, 2008, 200 – bet
21. G.D. Shamsidinova, D.A. Karimova” Kimyoviy ekologiya”, Toshkent, 2010, 234 bet.
22. Intenet ma’lumotlari.  
: <http://energy.econews.uz>,  
<http://eco.uz/>.  
<http://uzb.econews.uz/in>